

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM

VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XALQ IJODIYOTI FAKULTETI

“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI

**Madaniy - hordiqiy faoliyatni tashkil etishda bo‘sh vaqt fenomenining
ahamiyati mavzusidagi**


BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Madaniyat va san‘at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi
bitiruvchisi 4 kurs talabasi
Shukurova Munisa Sadriddin qizi


(imzo)

Ilmiy rahbar: “Madaniyat va san‘at muas-
sasalarini tashkil etish va boshqarish”
kafedrası, sotsiologiya fanlari doktori,
professor A.A. Umarov


(imzo)



Bitiruv malakaviy ish kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi. Kafedra
majlisining 26 - sonli bayonnomasi “17” may 2018 yil

TOSHKENT – 2018


Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xalq ijodiyoti”
fakulteti dekani
J.Mamatqosimov



“ 14 ” 2018 yil

“Madaniyat vas an’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish”
kafedrası mudiri
B.Salaydinov



“ 12 ” 2018 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I-BOB. MADANIY-HORDIQIY FAOLIYATNING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

1.1. Madaniy-hordiqiy faoliyat tushunchasi va uning ijtimoiy hayotdagi o'рни.....8

1.2. Madaniy-hordiqiy faoliyatning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati.....18

II-BOB. BO'SH VAQT VA MADANIY-HORDIQIY FAOLIYATNING TAQOZODORLIGI

2.1. Bo'sh vaqt: tushunchasi, turlari, xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati28

2.2. Samarali madaniy-hordiqiy faoliyatning bo'sh vaqt imkoniyatlariga bog'liqligi.....48

Xulosa.....69

Gloosariy71

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....73

Ilovalar.....75

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Insonlarni bo'sh vaqtini mazmunli, zavqli, qiziqarli hamda samarali o'tishida madaniy hordiq faoliyatining o'rni kattadir. Xo'sh shunday ekan, umuman olganda insonda bo'sh vaqtning o'zi bo'ladimi? Inson bo'sh vaqtida, madaniy hordiq oladimi? yoki madaniy hordiq olishi uchun bo'sh vaqt topadimi? Bu insonni o'ziga bog'liq ya'ni inson o'zi uchun bo'sh vaqt topib, madaniy hordiq olsa charchoqlaridan halos bo'ladi, ruhiy yengillik, sog'ligining mustahkamlanishi, ishining unumdorligi oshib, o'z kasbiga nisbattan yangicha yondosha boshlaydi. Insonlarning bo'sh vaqti ixtiyoriy tarzda, o'z qiziqishlari, iste'dodi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o'tadi. Shu sababli ham "Bo'sh vaqt - ijtimoiy boylik" deyishadi. Bizning vazifamiz esa insonlarni bosh vaqtlarini samarali o'tishini ta'minlashdan iborat. Madaniyat va san'at muassasalari faoliyati madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va san'at saroylari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, mahalla guzarlari, axborot resurs markazlari, kutubxonalar, rassomlik galeriyalari orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarning barchasida shaxs kamolotida va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar katta rol o'ynaydi. Davlatimiz hozirgi tezkor rivojlanayotgan bir sharoitda yoshlarimizni bu jarayonga keng jalb qilish. Yoshlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli darajada tashkil qilish usullarini tahlil qilish, bugungi globallashuv davrida yoshlarmizning ongini to'g'ri yo'naltirishga doir tadbirlarni tashkil qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimovning davlatimizda yoshlarni va kattalarning madaniy dam olisharini tashkil qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 178-qarori qabul qilindi. Bu qarorda joylarda insonlarni madaniy hordiq chiqarishi uchun Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil qilish chora tadbirlari to'g'risida aytib o'tilgan. Aholining madaniy hordiq chiqarishlari uchun madaniyat va aholi dam olish markazlarida ishlar tashkil qilinmoqda.

Insonlarning ma'naviy barqarorligini yo'lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb yetishi kelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishida madaniy-ma'rifiy muassasa rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir. Chunki insonlarning bo'sh vaqtida ixtiyoriy tarzda, o'z qiziqishlari, iste'dodi va qobiliyatlariga yarasha ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va uni uyushtirish madaniy-ma'rifiy xodimlarning murabbiylik mahorati va bilimiga bog'liqligidir.

Hozirgi paytda insonlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali tarzda uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni talab etadi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi kishilarning madaniy dam olishini, hordiq chiqarishini samarali tashkil etishda bo'sh vaqt imkoniyatlaridan unumli foydalanishning usul va vositalarini tadqiq etish hamda bu borada tegishli amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- insonlarda bo'sh vaqt omilining muhimlik darajasini aniqlash va o'rganish;
- insonlar muammolarini, kamchilik va nuqsonlarini o'rganib chiqib kerakli tavsiyalar bilan muammolarini yechish yo'llarini ko'rsatib berish;
- qaysi doirada bo'lmasin, shaxsiy fikr bildirish o'ziga xos zamin hozirlash;
- insonning zakkolik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qilish;
- insonlarning bo'sh vaqtlarini kungilli o'tkazish hamda maroqli dam olishlari uchun qiziqarli dasturlar bilan chiqishlar qilib, ularning bu sohadagi iste'dodlarini o'stirish;

Fuqarolarning siyosiy faolligi birinchi navbatda huquq vositasida mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy munosabatlar, fuqarolar uchun yaratilgan ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi ta'sirida shakllanadi. Fuqarolar hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sharoitlari siyosiy bilimlar doirasini belgilab beradi, hamda

ular shakllanishi va amal qilishining siyosatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishning zarur sharti bo'ldi.

Fuqarolarimizni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning yomon oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarurati. Bugungi o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda madaniy tadbirlardan to'g'ri foydalanish usullarini tadqiq etish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining o'rganilganlik darajasi. Hususan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari topish va yanada mukamallashtirish borasida M. Bekmurodov, B.Begmatov, A.Jabborov, A.Ashirov, Sh.Ahmadjonovlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida yoritib berganlar bundan tashqari A.Begmatova va R.Rustamovalarning "Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar" nomli to'plamida Madaniy ma'rifiy tadbirlar orqali yoshlarni ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalashning usul va vositalari. Insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari qisman yoritib berilgan. Bu sohani chuqur, ipidan ignasigacha o'rganishga bel bog'lagan tadqiqotchilarimiz yo'q emas albatta Madaniy dam olish yuzasidan U.Qoraboyev, A.Mavrulov, M.Bekmurod kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Aholi sonining oshib borishi, bugungi kishilarning fikrlash darajalari kuchayib borayotganini inobatga olgan holda tadqiqot davomida insonlarning to'g'ri dam olishlarini tashkil qilishni o'rganib chiqamiz.

Bitiruv malakaviy ishining obykti va predmeti. Insonlarning bo'sh vaqtlari uchun samarali ishlarni olib boradigan tarbiya muassasalari faoliyatlarini keng qamrab oladi. Insonlar uchun madaniy-ma'rifiy tadbirlar uyishtirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish xususiyatlari va shakllari belgilangan. Insonlar siyosatning ob'ekti yoki sub'ekti sanaladi. Chunki, fuqarolikning o'zi siyosiylashishdir. Siyosat inson uchun yaratilgan bo'lib u inson manfaati uchun xizmat qiladi. Shu o'rinda aholining madaniy dam olishini tashkil qilish masalalari ham tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

1. **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Ushbu tadqiqot ishida Istiqlol sharoitida madaniy tadbirlarning rivojlanishini boshqarishda aholiga namunali xizmat ko'rsatish ijtimoiy faollikni oshirishda o'ziga xos o'rnini aniqlandi, Madaniy - hordiqiy faoliyatni tashkil etishda bo'sh vaqt fenomenining ahamiyati shaxsning shakllanishida ijtimoiylashuv va hayotda o'z o'rniga ega bo'lishga qiziqishlarini uyg'otish hamda Bo'sh vaqt har bir shaxsning rivojlanishi uchun muhim omil ekanini nazarda tutib, ijtimoiy boylik sanalgan bo'sh vaqtdan aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar to'g'ri foydalanishlariga yordam beradigan pedagogik ishlanmalar yaratishga, insonlarning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishni targ'ib qiladigan xilma-xil madaniy hordiq turlarini teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda muntazam yoritib borish, shuningdek gazeta va jurnallarda maqolalar berib borishligi, madaniy hordiqning xalqona turlarini, ya'ni alohida inshootlarni talab qilmaydigan va tabiat qo'ynida, toza havoda o'tkaziladigan xalq o'yinlarini yanada keng yoyish, ular bo'yicha turli yoshdagi o'g'il-qizlar, hatto yoshi kattalar o'rtasida ham ko'ngilochar musobaqalar uyushtirib turish, amaliy kursatmalar, fikrlar berishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'llanilgan uslublar. kuzatish, mantiqiylik, tizimlilik, analiz, sintez va umumlashtirish, tahlil va shu kabi usullarga tayanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil inson madaniyatining o'ziga xosliklari, bunda madaniyat muassasalarining o'rnini va madaniyatshunoslik sohalariga nazariy hissa bo'lib qo'shildi. Uning nazariy ahamiyati o'tkazilgan ilmiy tahlillar va olingan xulosalar "madaniy tadbirlarni tashkil etish", "madaniyat va san'at menejmenti" kabi sohalarini yanada boyitishga xizmat qilishida ham namoyon bo'ladi. Insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda tirgak bo'ladigan ilmiy to'plamlar, madaniy-ma'rifiy ishlar sohasiga doir ishlarini olib borish masalasiga oid bo'lgan hujjatlar tadqiqotning nazariy asosi va dasturiy amali hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan insonning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish tushunchalarini takomillashtirishda qo'l kelishi.

Tadqiqot natijasida chiqarilgan nazariy xulosalar va sohaning rivojlanish tamoyillari xususidagi taklif-mulohazalar madaniyat muassasalari faoliyatini o'rganish bo'yicha bundan keyin olib boriladigan ilmiy izlanishlarda manba vazifasini o'tashi, shuningdek, madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish sohasida talabalar uchun o'zlarining madaniyat borasidagi bilimni yanada oshirishlari uchun nazariy-amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan. Hozirgi tezkor rivojlanish jarayonida yoshlarimizning ma'naviy tafakkurini shakllantirish yuzasidan qilinadigan ishlarda bu bitiruv malakaviy ishidan foydalanish mumkin. Zamonaviy madaniy dam olish shakllarini tadbiq etish yuzasidan kerakli ma'lumotlar va qo'llamalar bilan tanishib chiqish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi, hajmi. Kirish, ikkita bob, to'rtta paragraf, xulosa, gloosariy, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan, iborat.

I-BOB. MADANIY-HORDIQIY FAOLIYATNING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

1.1 Madaniy- hordiqiy faoliyat tushunchasi va uning ijtimoiy hayotdagi o'рни

Insoniyat o'tmishining ilk davrlaridan boshlab dam olish, charchoqni yozish, sarflangan jismoniy kuchni tiklash uchun muayyan tadbirlarni amalga oshirishni odat qilgan. Oldinlari hordiq chiqarish ko'proq fiziologik xarakterda bo'lsa, keyinchalik u psixo-fiziologik xarakter kasb eta boshlagan. YA'ni dam olish ma'lum ijtimoiy-madaniy mazmunga ega bo'lib borgan. Ana shunday qilib madaniy tadbirlar kishining tabiiy ehtiyoji asosida muhim mashg'ulot sifatida eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. Kishilarning tabiiy ehtiyoji asosida ongli mehnat qilishi muayyan tadbirlardan foydalanishni taqozo etgan. Hayotiy *tajribalar* asosida tadbirlarning turlari shakllangan. Chuqur ma'noli va shaklan madaniylashgan tajribalar odatlarga aylangan. Muhim ahamiyat kasb etgan odatlar asosida marosimlar paydo bo'lgan. Jamoa hayotida xursandchilik bilan o'tadigan voqealar zamirida *bayramlar* shakllangan. Shunday qilib, tadbirlarning turli darajalari va shakllari paydo bo'la boshlagan.

Eng qadimgi mashg'ulotlar bilan bog'liq an'analar, jumladan, *terimchilik* odatlari (tabiiy oziq-ovqat yig'ish tajribalari, musobaqa o'yinlari), *ovchilik* o'yinlari (ov oldi mashq-o'yinlari, ovdan so'nggi marosim tomoshali o'yinlar), *chorvachilik* udumlari (yovvoyi hayvonlarni ovlash va qo'lga o'rgatish, uy hayvonlarini parvarishlash, qishga go'sht tayyorlash odatlari), *dehqonchilik* odatlari (bahorda ekin ekish, kuzda hosil yig'ish marosimlari), ilg'or ish tajribalari, mehnat yutuqlari, keksalar ibрати, ajdodlar tadbirlaridan samarali foydalanishga imkoniyat yaratgan.

Mehnat (terimchilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik) tadbirlari ish jarayonining muhim qismi sifatida tashkil qilinsa, madaniy tadbirlar ko'proq odamlarning bo'sh vaqtida, dam olish shakli sifatida uyushtiriladi.

Eng qadimiy odamlarning turmushi bilan bog'liq an'analar, jumladan,

jamo'a (to'lda) bo'lib yashash udumlari, sardorlik (oqsoqollik) uchun olishuvlar, imitatsiya (bolalik, o'spirinlikdan erkaklikka o'tish) marosimlari, turli ko'rinishdagi dafn odatlari, qurbonlik marosimlari, organistik bayramlar, oila va to'y marosimlarining poydevori bo'lgan *poligam*, *egzogam*, *monogam* odatlari kabilar ibtidoiy jamoa taraqqiyotida jiddiy rol o'ynagan. Ular ibtidoiy odamlarning mashaqqatli hayotida erishilgan tajribalar, yutuqlarni asrash va ko'paytirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ijtimoiy taraqqiyot davomida odamlarning yashash uchun kurashi, ongli mehnat qilishi jarayonida tajriba, ko'nikmalarni ortishi; kishilarning moddiy–ma'naviy ehtiyojlarini o'sib borishi; ularning tabiat sirlarini anglash jarayonida turli tushuncha, tasavvur, e'tiqodlarini paydo bo'lishi; mehnat taqsimoti natijasida turli mehnat sohalarini taraqqiy etishi; odamlar, qabilalar, urug', jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashishi insoniy an'analarning vujudga kelishida muhim omillar sifatida xizmat qilgan.

Qadimdan boshlab odamlarni hayot, tabiat sirlarini tushunishga intilishi natijasida, ularning ongida turli tasavvurlar, jumladan, fetishistik, totemistik, animistik, politeistik, magik kabi e'tiqodlar paydo bo'ldi. Qadimiy odamlarning tushunchalari, odat va marosimlarida (chunonchi, «yomg'ir tilash», «shamol chaqirish», «quyoshga sig'inish», «qurbonlik qilish» marosimlarida) o'z aksini topib, ular Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyatining shakllanishiga hissa qo'shgan.

Shunday qilib, ibtidoiy davrda ilk madaniyat shakllari — «Ovchilik o'yinlari», «Zoafagik bayramlar», «Magik marosimlar», «Imitatsiya tadbirlari», «Organistik bayramlar» va boshqalar paydo bo'lgan. Bunday tadbirlar ilk madaniyat va ma'rifat maskanlari: «Jamo'a uylari», «O'spirinlar uylari», «Erkaklar uylari», «Quyoshgohlar», («Quyosh uylari») kabi joylarda ham o'tkazilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari an'alarini shakllanishida zardushtiylarning dualistik qarashlari alohida ajralib turgan. Ajdodlarimiz e'tiqodi asosida vujudga kelgan zardushtiylik dini tarixda qoldi. Biroq bu dinga xos ko'pgina

odatlar, bayramlar, rasm–rusumlar hozirgi paytgacha ham saqlanib kelgan. Markaziy Osiyoga VIII asrdan boshlab islom dini bilan birga musulmon odatlari, jumladan, islom dini asoslari-«arkon ad-din» besh amaliy va marosimchilik rukun–talablari, diniy bayram va marosimlar Muhammad payg‘ambar va islom dinini ulug‘lash bo‘lsa ham, ularning mazmunida insoniylik, oliyjanoblik, saxiylik, rahmdillik, mehr–muruvvatlilik kabi g‘oyalar targ‘ib qilinar edi. Islomgacha mavjud bo‘lgan odatlarning muayyan qismi islom odatlariga chatishib ketadi va ular ham odamlar o‘rtasida mehr–oqibat, izzat–hurmat, qadr–qimmat, muruvvat, oqibat kabi insoniy fazilatlarini ravnaq topishida xizmat qildi.

O‘rta asrlarda, ayniqsa, IX–XII asrlar va XIV–XV asrlarda bayram-marosimlar juda katta tantanalar bilan nishonlangan. Bu davrda o‘lkada islom diniga xos bayramlar xalq hayotidan o‘z o‘rnini topdi, ularni tashkil qilish uchun «Namozgoh», «Iydgoh», «Musalla-iyd» kabi shahardan tashqari maskanlar barpo etilgan.

Xalqning qadimiy bayramlari o‘rta asrlar boshida saqlangan bo‘lsa-da, keyinchalik din arboblarning bu bayramlarni o‘tkazilishiga qarshi kurashi natijasida ular o‘z mavqeini yo‘qota boshlagan. Davlatchilik rivojlanishi natijasida hukmdorlar hayoti bilan bog‘liq to‘ylar, uning farzandlari va nevaralari hayoti bilan bog‘liq marosimlar va davlat miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bog‘liq bayramlarni o‘tkazish keng yoyilgan.

Temuriylar davrida o‘lkamizda madaniyat ravnaq topib, bayram-marosimlar keng rivojlangan. XVI–XIX asrlarda esa tez-tez urushlar bo‘lishi, xonlik va bekliklarga bo‘linish bayram, marosimlar o‘tkazilishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘lkada Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari yuzaga kelishi natijasida, bu hududlarda o‘tkaziladigan bayramlarda ayrim o‘ziga xosliklar paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bayramlarga xos umumiy jihatlar saqlanib qolavergan. Amir va xonlar xalq o‘rtasida o‘z obro‘yini ko‘tarish maqsadida bayramlarga alohida e’tibor berib, o‘z manfaatiga mos keluvchi g‘oyalarni

bayram tomoshalariga singdirishga harakat qilishgan.

XIX asrda o'lkaning ziyolilari, san'atkor va shoirlari xalq bayramlarini keng targ'ib qilgani tufayli xalqimizning go'zal bayramlari saqlanib qolingan.

Odamlar o'z millatiga, davlatiga, diniga birlasha boshladilar. Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyatning evolyusion jihatdan yuqori bosqichi shakllana boshladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat o'z shakllanish tarixida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

1. ilk ma'rifiy-maishiy muassasalar tashkil etilgan;
2. hordiq muassasalari shakllanib, rivojlangan;
3. tijorat bilan uyg'unlashgan muassasalar faoliyat yuritgan;
4. diniy-ma'rifiy muassasalar ochilgan;

Madaniy tadbirlarning oliy ko'rinishi bo'lib, insoniyat tarixining rivojlanishi bilan takomillashib kelgan. Insoniyat yaralibdiki, uning turmush tarzida madaniy tadbirlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Insoniyat hayotini bayramsiz, an'ana, marosim, urf-odatlargasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Teatr san'ati, musiqa, raqs va boshqa san'at turlari orqali ham insonlarni tarbiyalash, ularga estetik zavq bag'ishlash, ezgulikka undash kabi maqsadlar qo'yilganki, uni amalga oshirish uchun esa badiiy jamoa rahbari turli ifodaviy va ta'sirchan vositalardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda, aniqrog'i, yurtimiz mustaqillikka erishgach, madaniy tadbirlarga e'tiborning kuchayganligini sezishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov shunday degan edilar "Jamiyat a'zolarining qiziqishlari va extiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo'sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan shaxsan tarbiyalash madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'z oldiga qo'ygan vazifasidir".¹

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yuqori bosqichi odamlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qo'shimcha kasb-hunarlarini o'rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to'garaklarda (faoliyat yuritish singari mashg'ulliklar tarzida amal qila boshladi).

¹ I.A.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi". -Toshkent.: "O'zbekiston" 1997 yil.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyat turmush tarzini bezash, an'ana va urfodatlarni o'tkazish, diniy marosimlar, tabiat va rasmiy bayramlarni keng nishonlash shaklida ham namoyon bo'la bordi. Shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyat odamlar hayotida mustaxkam joylashganligining asosiy omillari oydinlashdi.

Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- odamlarning o'zaro ahilligi, totuv turmush tarzini ta'minlash uchun ularni biror bir mashg'ulot turi bilan band etib turishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;

- san'at turlaridan zavq olish, go'zallikka intilish, nafis narsalarni yaratishdan iborat ma'naviy ehtiyoj;

- yoshlarni maqsadli tarbiyalash uchun muayyan ideallarga yo'naltiruvchi muqim raqobat ruhini yaratishdan iborat jamiyat ehtiyoji;

- yoshlarni keng dunyoqarash va chuqur bilimli qilib hayotga tayyorlash uchun ularga qo'shimcha bilim va hunar o'rgatish zarurati;

Jamiyatdagi an'ana, marosim, bayram, urf-odatlarining o'tkazilishini ma'lum tartibotlar asosida muvofiqlashtirib borishdan iborat ijtimoiy ehtiyojlar shular jumlasidandir².

Sho'rolar davrida ijtimoiy-madaniy faoliyat funksiyalari muayyan darajada o'zgartirilib, kommunistik mafko'raga ko'ra moslashtirildi. Uning nomi madaniy-oqartuv ishi deb atala boshlandi. Madaniy-oqartuv ishi tarkibiga kutubxonalar, klublar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari kiritildi.

Xalqning ming yillar mobaynidagi an'anaviy ijtimoiy-madaniy muassasalari hisoblangan choyxonalar, guzarlar, bog'lar, diniy muassasalar, shuningdek, milliy to'ylar, marosim va an'analar, urf-odatlar bu tarkibdan chetda qoldi. Madaniy-oqartuv ishida ommaviylik tamoyiliga amal qilinmadi. Shuningdek, bu faoliyat odamlarning milliy ruhiga begona ish va mashg'ulotlar tarzida amal qilib keldi.

Birgina misol: 3-5 ming kishilik xududda faoliyat yurituvchi qishloq klubida agar 5-7 nafar havaskorlik to'garaklari faoliyat yuritsa, bu klub «yaxshi» baxolanar, agar 1-2 nafar to'garak bo'lsa, bu klubning ishi qoniqarsiz deb topilar edi.

² Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent.: Adolat, 2003. – B.96

Klublar bir yilda 3 nafar sho‘ro bayramlarini hamda 3-4 to‘garakda qatnashuvchi 20-25 kishi bilan mashg‘ulotlar o‘tkazib turuvchi joy edi xolos.

Mustaqillik tufayli, madaniyat tarixida yangi sahifa ochildi. Xalqimizning tarixiy me‘rosi tiklash davlat siyosatiga ko‘tarildi. Shu sababli bugungi kunda ijtimoiy-madaniy faoliyat xodimi:

- odamlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlari asosidagi takliflarni shakllantirish;
- aholini turli ijtimoiy jamolarga uyushtirish;
- aholi dunyoqarashini maqsadli boyitish;
- aholi iste‘dodlarini aniqash va tarbiyalash;
- milliy qadriyatlarini tiklashga xizmat qilish;

Istiqloldan so‘ng ijtimoiy-madaniy faoliyat tubdan o‘zgardi. Bu sohada tub tarkibiy o‘zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda. Mazkur o‘zgarishlar natijasida ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy ish funksiyalari tarkib toptirildi.

Ular quyidagilar:

- O‘zbekistonning mustaqil rivojlanishini ta‘minlovchi besh asosiy tamoyilning hayotdan mustahkam o‘rin olishi;

- Aholi turli qatlamlarida mamlakatimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar jarayoniga bevosita daxldorlikni shakllantirish;

- Hech kimdan kam bo‘lmagan shaxs, jamiyat va davlatni shakllantirishga faol ko‘maklashish;

- Jamiyatda hushyorlik, sezgirlik, ogohlikni ta‘minlashda aholining faol ishtirokini ta‘minlash;

- Odamlarni sho‘rolar davridagi kabi noiloj emas, balki chin dildan yakdil birlashishlariga xizmat qilish;

- Aholini bunyodkorlik faoliyatlariga yo‘naltirish;

- Aholining madaniyat, san‘at, texnika, xunarmandchilik va sport mashg‘ulotlari, klublari, to‘garaklariga keng jalb etilishiga erishish;

- Odamlarda milliy an‘analar, urf-odatlar, qadimiy bayramlarimizga ehtirom fazilatlarini tarkib toptirish orqali milliy o‘zlikni anglashga ko‘maklashish;

- Aholi turli tabaqalari vakillarida bayramlar, ideallarga sadoqat, fidoyilik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilish;

- Odamlarda badiiy, estetik didning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qilish;

- Aholiga oila muqaddas qadriyat ekanligi targ'ib qilish;

- «Maktab-oila-mahalla» hamkorligini ta'minlash orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga erishish;

- Turli ijtimoiy harakatlar, nodavlat tashkilotlar, partiyalar, milliy-madaniy markazlar bilan faol hamkorlikni yo'lga quyish;

- Zamona qaxramoni obrazini hududdagi real shaxslar timsolida yaratish orqali ibrat omilini keng targ'ib etish;

- Har bir insonga xos bo'lgan iste'dodni aniqlash yo'lida doimiy faoliyat olib borish va ularning hududiy intellektual salohiyat xaritasini ishlab chiqish;

Istiqlol yillarida shu tariqa ijtimoiy-madaniy faoliyat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning uzviy bo'g'iniga aylandi³.

Har qanday fan, o'quv predmeti, umuman, bilimning barcha sohalari ilmiy asos yoki nazariyasiz rivojlana olmaydi.

NAZARIYA - hayot hodisalari, inson tajribasi, amaliy faoliyat haqidagi bilimlarni yig'adi, umumlashtiradi, mantiqiy bir sistemaga soladi.

Nazariya - ma'lum bilimlar sohasidagi inson tafakkurining obyektiv qonunlarini aks ettiradi, mantiqiy fikrlash yo'li bilan ishlab chiqargan bilim - qoidalar asosi va majmuasini vujudga keltiradi. Nazariyaning asosiy vazifalaridan biri insonlar bilimini boyitib va chuqurlashtirib borishidir.

Hozirgi davrda «Madaniy - ma'rifiy faoliyat» asoslari fanini shakllantiradigan asoslar, ya'ni uning mohiyati, hayotda tutgan o'rni, vazifalari, o'ziga asos xususiyatlari va ularni tashkil qilish qonun - qoidalari haqidagi bilimlar mavjud.

O'zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridayoq ijtimoiy hayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda aholining turmush madaniyatini tubdan yaxshi-

³ Bekmurodov M. Demokratik jamiyatda oila Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent.: 2003. №4 (24). 30-6.

lash, insonlarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish, xalqning badiiy havaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolarga jiddiy e'tibor berildi.

«Madaniy - ma'rifiy faoliyat», avvalo, madaniy-ma'rifiy muassasa, madaniyat va aholi dam olish markazi, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Madaniy-ma'rifiy muassasalar bu g'oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi xisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi. Ularni har tomonlama rivojlantirish, havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyat, asosan insonlarning ishdan bo'sh vaqtlarida olib boriladi, insonlarga asosiy ishdan tashqari har xil mazmundagi va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat insonlarning hordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida asosiy ish faoliyat bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi.

Madaniy - ma'rifiy faoliyat - aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatningo'z obyekti, predmeti va ish faoliyati mavjud.

Bu ish faoliyatlari madaniy-ma'rifiy ishlarning shakllarini vujudga keltiradi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat turlariga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, viktorina, ko'rgazma, konkurs, sayohat va ekskursiya kabilar kiradi⁴.

Shundan kelib chiqib, madaniy-ma'rifiy muassasalarning **asosiy funksiyalari** quyidagilardan iborat:

- **Ma'rifiy funksiyasi**—kishilarning bilimdonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish.

- **Ijodiy funksiyasi**—ommaning ijodkorligi va tashabbuskorligini taraqqiy

⁴Jabborov . O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi. 2003.

ettirish.

- **Rekreatsiya funksiyasi**– aholining madaniy dam olishini uyushtirish.

- **Muloqot funksiyasi**– kishilarning umumiy qiziqishlari asosida uchrashuv, fikr almashuv, o‘zaro ma’naviy boyishini uyushtirish.

Bundan tashqari, madaniy-ma’rifiy ish shakllariga klub uyushmalari badiiy va havaskorlik to‘garaklarining mashg‘ulotlarini kiritish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, madaniy-ma’rifiy faoliyatining ish shakllari xilma-xil va ko‘pdir. Ular haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish uchun maxsus tasnif mavjud. Ular ichida ikki xil tasnif diqqatga sazovordir. Birinchi tur tasniflashga madaniy - ma’rifiy ish shakllariga qatnashadigan insonlarning soni asos qilib olinadi. Ular quyidagilarga bo‘linadi: yakka, guruhli va ommaviy shakllar.

1. Yakka shakllar-mutaxassis va tinglovchi o‘rtasidagi konsultatsiya, yakka suhbat, ommaviy mashg‘ulotlardan tashkil topadi.

2. Guruxli shakllar - taxminan 15-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ya’ni munozara, seminar, suhbat, ekskursiya, havaskorlik jamoalari mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi.

3. Ommaviy shakllar-soni cheklanmagan, katta auditoriyaga mo‘ljallangan ma’ruza savol-javob kechalari, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va boshqalarda vujudga keladi. Ommaviy shakllar madaniy-ma’rifiy faoliyatning asosiy qismini tashkil qiladi.

2-tur tasniflash madaniy faoliyatda qanday ta’sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu borada ham ish shakllari 3 guruhga bo‘linadi: monologik, diologik va ko‘p tarmoqli shakllar.

1. Monologik shakllar - bu notiqning og‘zaki, «jonli» so‘zi hamda boshqa ta’sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar. Masalan, ma’ruza, doklad, axborot va boshqalar.

2. Diologik shakllar bular asosan, muloqot, suhbat, fikr almashishdan iborat bo‘lib, unga suhbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. Ko'p tarmoqli shakllar deganda monologik va diologik shakllar bilan bir qatorda boshqa ta'sirchan vositalardan foydalanish mumkin bo'lgan tadbirlar tushuniladi. Masalan, og'zaki jurnal, mavzuli kechalar va boshqalar.

Madaniy - ma'rifiy faoliyatning uch asosiy bo'g'ini mavjud bo'lib, bular: madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatdan iborat.

Madaniyat arabcha «madina» (shahar kentlar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar insonlar hayotini ikki turga bo'lib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik bu ko'chmanchi holda cho'l sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharlarda o'troq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanib jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuini biror ijtimoiy gurux yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritilgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilikni hamda turmushning ma'rifatli kishi extiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Madaniyat ikki turga bo'linadi: moddiy va ma'naviy madaniyat.

Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha soxalari hamda uning samaralarimehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyatga aqlan va ma'nau yaratuvchanlik sohalari-bilim, aloqa, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, din va shu kabilar kiradi.

Ma'naviyyatga Birinchi Prizedetimiz shunday tarif bergan edi, “ ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz.”⁵

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”. 2008. – B.19-20.

O‘tmish davrdan insoniyatga qolgan moddiy va ma’naviy madaniyat boyliklari majmuiga madaniy meros deyiladi. Har bir yangi avlod moddiy va ma’naviy madaniyat negizini yangitdan yaratmaydi, balki ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni qabul qilib oladi. Demak, madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi.

Insonlarni bo’sh vaqtlarida maroqli dam olishlari uchun yuqoridagi barcha tashkilot va muassasalar yuqori darajada yo’lga qoyilgan, Prezidentimizni bizga ya’ni madaniyat ahliga bo’lgan e’tibori desak bo’ladi. Madaniy dam olish jarayonida insonlar ancha yaxshi tomonga o’zgarishadi, chunki ular ma’naviy ozuqa olishadi.

1.2. Madaniy- hordiqiy faoliyatning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati.

Jamiyat a’zolarining qiziqishlari va extiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo’sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan shaxsan tarbiyalash madaniy-ma’rifiy muassasalarning o’z oldiga qo’ygan vazifasidir.⁶

Har yilda bir marta dam olish - har yil qonuniy ravishda haq to’lanib, hordiq chiqarishga imkoniyat beruvchi ta’tillardir. Bunga sog’likni mustahkamlash uchun sanatoriylar, turistik bazalarda dam olish va shu kabilar kiradi.

Bo’sh vaqt shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun bebaho ne’matdir.

Chunki bo’sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs ma’naviyatining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Pirovard natijada bo’sh vaqt mehnat unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. “Yaxshi dam – mehnatga xamd”, deydi xalqimiz.

Agar inson qanchalik yaxshi va unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. O’z navbatida shu narsa e’tiborga molikki, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko’ngildagidek mehnat qila olmaydi. Shunday ekan bo’sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf bo’lgan kuch quvvatlarini tiklash, sog’liklarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

⁶ I.A.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. –Toshkent.: “O‘zbekiston” 1997 yil.

Insonning madaniy ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratib beruvchi bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish masalalariga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Bugun ijtimoiy hayotni qayta qurish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, xalqning turmush madaniyatini tubdan yaxshilash jarayoni amalga oshirilayotgan davrda kishilarning bo‘sh vaqti va madaniy dam olishini uyushtirish, ularni ma’naviy va jismoniy rivojlantirib, faol mehnat faoliyatiga tayyorlash birinchi darajali vazifaga aylandi.

Har bir jamiyat va davr o‘z madaniyat ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Jamiyat o‘zgarishi bilan uning madaniyati o‘zgaradi-yu, lekin madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgari madaniyat yo‘q bo‘lib ketmaydi, madaniy meros va an’analar saqlanadi.

Shu bilan birga har bir jamiyat o‘tmish madaniy merosini qanday bo‘lsa, shundayligicha, ko‘r-ko‘rona qabul qilib olmaydi, albatta. Madaniy merosning o‘z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlarga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qismini qabul qiladi⁷. Chunki o‘tmishdan qolgan barcha narsalar bir xil qadriyatga ega bo‘lmaydi. Masalan, sho‘rolar zamonida yaratilib, uning siyosatini targib etgan endilikda o‘z umrini yashab bo‘lgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati yo‘q. To‘g‘ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo‘yish mumkin, xolos.

Demak, madaniy merosning qadri abadi - abadi tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi.

Sho‘rolar davrida «Jonli gazeta», «Og‘zaki jurnal», «Agit tomosha», «Teatrlashtirilgan karnaval», «Agit sud», «Ommaviy tomosha», «Agitbrigada chiqishlari», «Miting – konsert» kabi tadbirlar mashhur bo‘lgan.

Mustaqillik tufayli o‘zbek bayramlari tarixida yangi sahifa ochildi. Bu davrda milliy an’analarni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, xalqimizning tarixiy merosi bo‘lgan an’analar («Navro‘z», «Ro‘za hayit» va «Qurbon hayit»lar) rasman tiklandi, istiqlolning yangi bayramlari («Mustaqillik kuni», «Konstitutsiya kuni», «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni», «Xotira va qadrlash kuni» kabilar) joriy etildi, umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi

⁷www.google.uz

bayramlar («Yangi yil bayrami», »Xotin–qizlar bayrami» kabilar) saqlab qolindi, jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan ajdodlarimiz tavalludlarini nishonlash, xalqaro anjumanlar ham xalqimizning bayramlariga aylanib ketmoqda.

Istiqlol yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur (1993), Feruz (1995), Bahouddin Naqshband (1995), Mirzo Ulug‘bek (1994), Najmiddin Kubro (1994), Amir Temur (1996), Imom al–Buxoriy (1998), Ahmad Farg‘oniy (1998), Jaloliddin Manguberdi (1999), Kamoliddin Behzod (2000), Al–Marg‘inoniy (2000) va Moturidiy (2000) kabi buyuk ajdodlarimiz tavalludining yirik sanalarini YUNESKO bilan hamkorlikda nishonlanishi yaqqol misoldir.

Qadimiy obidalarining keng ko‘lamda ta‘mirlanishi, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarda, Quva, Chelak tumanlarida yangi me‘moriy yodgorliklarning bunyod etilishi, Buxoro, Xiva, Termizning 2500 yilligi va Shahrisabzning 2700 yilligi tantanalarining nishonlanishi yurtdoshlarimizni ham, mamlakatimizga kelgan mehmonlarni ham qoyil qoldirdi.

Istiqlol tufayli xalqimizning ma‘naviy qadriyatlari jahon miqyosida e‘tirof etila boshlandi. O‘zbek musiqasi, teatri, kinosi, tasviriy san‘ati hozirgi kunda ham jahon jamoatchiligini qiziqtirmoqda. Xalq ijodiyotining buyuk namunasi – «Alpomish» dostoni yaratilganligining ming yillik tantanasi, tarixiy merosimiz «Avesto»ning yaratilganligini 2700 yilligiga oid tantanalar ajdodlarimizning bebaho merosiga qiziqishimizni yanada oshirdi. Shuningdek, Vatanimizda «Toshkent kino festivallari», «Sharq taronalari» musiqa festivali, «Simfoniya musiqa festivali», «Navro‘z» va «Sharq va G‘arb» xalqaro teatr festivallari, tasviriy san‘at bo‘yicha xalqaro ko‘rgazmalar, xalq ijodining turli janrlariga bag‘ishlangan ko‘rik–tanlovlar o‘tkazish an‘anaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yangicha madaniy tadbirlarning kuchayishi musiqa san‘atini rivojlantirishda alohida o‘rin egallay boshlagan «O‘zbekiston – Vatanim manim!» nomli respublika ko‘rik tanlovi, yilning eng yaxshi ijodkorini aniqlashga xizmat qiluvchi «Ofarin» tanlovi, yosh iste‘dodlarni rag‘batlantiruvchi «Nihol» tanlovi kabi anjumanlar shuhrat

topmoqda. Xalq ijodining alla, yalla, lapar, askiya, katta ashula, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi ko'plab janrlari hamda etnografik folklor, ashula va raqs jamoalarining tanlovlari ravnaqiga keng yo'l ochib bermoqda.

O'zbek madaniyatiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar xalqimizning badiiy merosini va zamonaviy yutuqlarini vatanimizda va xorijda targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bayramlar o'tkazish borasida ibratli ishlar qilinmoqda. Yirik bayramlar («Mustaqillik», «Navro'z»)ni tashkil qilish borasidagi tajribalarimizdan qo'shni mamlakatlarda ham foydalanishayotganligi juda quvonchli holdir.

Madaniy tadbirlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy tadbir yoki jahon miqyosidagi tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o'sha davlatning milliyligi, o'ziga xos urf-odatlarini o'rganamiz. Demakki, madaniy tadbirlar hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko'zgudir. Madaniy tadbir jamiyatning kechasi, buguni, ertani haqida dalolat beruvchi jonli manbadir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan "Obod turmush yili davlat dasturi doirasida xalqimizning hayoti sifati va darajasini yuksaltirish, mahallalarni yanada obod etish, sog'lom turmush tarzini rivojlantirish keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. Insonlarni madaniy dam olishini tashkil qilish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ushbu dastur asosida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013- yil 25-iyundagi qabul qilingan "2013-2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aholing madaniy dam olish sohasiga berilgan e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

Aholining madaniy dam olishini davlat siyosati darajasiga olib chiqish va uni tashkil qilish uchun shart-sharoitlar yaratib berish ishlari amalga oshirildi.

Aholining madaniy dam olishini tashkil qilish maqsadida: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar tumanlari (shaharlari) bo'yicha 1777

ta madaniyat uylari va klub muassasalari negizida, ular tomonidan ko'rsatiladigan madaniy-ommaviy xizmatlardan keng aholi qatlamlarining foydalanishi ta'minlanishini hisobga olgan holda, 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarini (ulardan 38 tasi - imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun) aniqlash va joylashtirish sxemasini ishlab chiqdi va uni hayotga tadbiiq etdi. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida madaniy dam olish va hordiq chiqarish ishlarini tashkil qilish bilan bir qatorda Madaniyat va san'at, ma'naviy-ahloqiy rivojlanish hamda milliy o'z o'zini anglashning o'sishi sohalarida O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlarni keng va to'liq ochib berishni ta'minlovchi ko'riklar, ko'rgazmalar, festivallar va tanlovlarni aholining turli qatlamlarini jalb etgan holda tashkil etish va o'tkazish. Aholi, aynisa yoshlar o'rtasida O'zbekistonning boy ma'naviy va madaniy merosini saqlash va targ'ib etishga yo'naltirilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Chunonchi, folklor jamoalarini, milliy hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil etish. O'quvchilar va talabalarning yozgi ta'tillari davrida bolalar va yoshlar uchun madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini o'tkazish. Qo'shimcha pulli xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish, shu jumladan madaniyat va aholi dam olish markazlarida pulli to'garaklar, studiyalar, havaskorlik jamoalari konsertlarini tashkil etish. Dastur doirasida bajarilayotgan tadbirlarni, madaniyat va aholi dam olish markazlari qatnashchilarining yutuqlari va muvaffaqiyatlari to'g'risidagi materiallarni ommaviy axborot vositalarida hamda Internet tarmog'ida muntazam yoritib borish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari milliy an'anaviy madaniyatni saqlab qolish va o'rganishda jamoatchilik ehtiyojlarini o'rganish va qondirish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, uning dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etilgan.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari turli hududlarda tashkil qilinadi. Aholi soniga qarab tashkil qilinadi. Jamiyatimizning barcha shaxslari madaniyat va aholi dam olish markazlariga qatnashi va undagi tadbirlarda bevosita ishtorok et-

ishlari uchun madaniyat va aholi dam olish markazlari respublikamizning barcha hududlarida, chekka-chekka qishloq va ovullarida ham tashkil qilinmoqda. Madaniyat va aholi dam olish markazlari xizmat ko'rsatadigan aholi soni va tomosha zaliga qarab uchta tipda quriladi. Jumladan:

I tipda – xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo'lgan va kamida 400 o'rindiqli tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tumanning ma'muriy markazlarida;

II tipda – xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda – xizmat ko'rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo'lgan va o'rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib I, II va III tipdagi madaniyat va aholi dam olish markazlari, qishloq joylarda esa – faqat II va III tipdagi madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etilishi mumkin.

Jamiyat o'z a'zolarining tarbiyalash uchun beriladigan barcha qadriyatlarni o'zi belgilaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi pedagog jarayonlar odamlarni, ayniqsa yosh avlodni muayyan qadriyatlar bilan qurollantirib, jamiyat uchun belgilangan maqsadlarda tarbiyalash bilan bog'liq.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning ijtimoiy, madaniy -tarbiyaviy muassasa sifatidagi roli va qadri behad kattadir.

Bugungi milliy respublikamizdagi rahbarlar yosh avlodni yangicha ijtimoiy ong bilan jamiyatning hozirgi talablariga mos o'zi yashayotgan jamiyat muhitining zaruriyatlariga javob beradigan, ya'ni vatanparvarlik ruhida himoyaga yetkazishni talab qiladi. Bu talabni amalga oshirishda viloyatlar markazlaridagi yagona teatr, muzey, kutubxonalar faoliyati kamlik qiladi.

Tumanlar markazlarida saqlanib qolgan madaniyat uylari, mahalla guzarlarida istirohat bog'larida ommaga ijtimoiy madaniy tadbirlar o'tkazish taqazo qiladilar.

Respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy islohatlar bo‘lib turgan bir paytda, xalq uchun juda qimmat bo‘lgan qadriyatlarni saqlab qolib, ularning o‘zbek xalq mustaqilligiga xizmat qilishiga katta e‘tibor berildi.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o‘rganishlari uchun xalqimizning o‘tmishimizda mavjud bo‘lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

Ijtimoiy madaniy ta'lim -tarbiya muassasalarining va yo‘nalishlarini belgilaganda respublikamizdagi hozirgi taraqqiyot jarayoni va undan kelib chiqadigan ehtiyojlarni xususiyatlari hisobga olinmoqda.

Davlat siyosatidagi mulk turlarining erkin bo‘lishi madaniyat uylarining xususiy turlarini paydo bo‘lishi va rivojlanishiga imkoniyat bermoqda. Bunday muassasalardagi ish mazmuni komil insonlarni tarbiyalashga qaratilmog‘i muhimdir.

Bizning davrimizda milliy mafkurani barqaror etish eng asosiy maqsadga aylandi. Madaniy -ma'rifiy muassasalar mahalliy xalqning milliy dunyoqarashi va ruhiyatiga, mentalitetiga, madaniyatiga mos, mahalliy sharoitiga yaqinlashtirilgan holda ish yuritmoqda. Madaniy muassasaning xizmat faoliyatida bo‘sh vaqtda ijtimoiy madaniy maqsadlarni amalga oshirish orqali foydalanish usullari, omillarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat dargohlardagi kompyuterlar yoshlar uchun faqat o‘yin quroli bo‘lib qolmasligi, o‘yinlar yoshlarning ijodiy qudratini, qobiliyatlarini amalga oshirishga ta'sir ko‘rsatishi zarur. Bu o‘yinlarda yoshlar uchun fikrlash talab etilmaydi. Madaniy uylarida kasb-hunar to‘garaklarini ochish turli qiziqarli kurslar tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Havaskorlikni rivojlantirish ham madaniyat uylarini tashkiliy tarbiyaviy muassasa sifatida ahamiyatni oshiradi.

Madaniy - ma'rifiy xodimning malakaviy faoliyati o‘z maqsadi mohiyati bilan tarbiyaviy ishdir. Uning asosiy vazifalari har tomonlama komil topgan shaxs shakllantirishdan iboratdir. Madaniy - ma'rifiy xodim mustaqil O‘zbekistonning

milliy siyosatining targ'ibotchisi mehnat va ahloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash, ommaning havaskorlik ijodiyotini rivojlantirish bilan ma'naviy barkamol inson tarbiyalash ishi bilan shug'ullanadi. Umummehtatkashlarning madaniy dam olish, o'z ma'naviy extiyojlarini qondirishga, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Odamlar bilan ishlashga da'vat etilgan madaniy-ma'rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to'garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg'uloti odamlarda o'z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg'ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma'rifiy xodimlarning o'zida vatanparvarlik tuyg'ularini qanchalik mustahkam o'rin olganligiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yo'naltirish va ularni bir yo'lga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan to'g'ri foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari mehtatkashlari o'rtasida g'oyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg'orlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va xordiq chiqarishini uyushtirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targ'iboch qiladi, yangi madaniyat va istirohat, san'at asarlarining paydo bo'lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik san'atini o'rganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini tarqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehtatkashlarining madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har kishini o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi markazi hisoblangan madaniy ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat maskanlari, qiroatxonalar shular jumlasidan demakdir. Madaniy va

ma'rifiy markazlariga respublika, shahar, tuman, viloyat, mahalla guzarlari, madaniyat uylari va madaniyat saroylari kiradi.

Muzeylar tarixiy, o'lkashunoslik, tabiat, san'at va turli ilm hamda kasb-kor, shon-shuhrat muzeylardan iboratdir.

Shahar, tuman va aholi zid joylashgan har bir dahada madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Teatr, konsert tashkilotlari, hayvonot va istirohat bog'lari, botanika bog'lari, sirklar va boshqalar tomosha muassasalari hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy ishlarni oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri aholi turar guzarlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda g'oyaviy, siyosiy, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Aholining turli guruhdagi, maktabdagi tarbiya yoshidagi o'quvchilar, yoshlar, o'smirlar, o'g'il va qizlar, erkaklar va ayollar, katta rol o'ynaydi, kampirlar, talabalar, yosh ishchilar, sanoat, transport aloqa vositalari va boshqa sohalarning ishchilari, chaqaloq, ho'jalik xodimlari, ziyolilar, uy bekalari va boshqalarni tushunamiz. Aholining bu guruhlari har biri o'ziga xos shakl va usullariga tadbirlar uyushtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach har sohada bo'lgani kabi iste'dod egalariga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, ularga g'amxo'rlik qilish kun tartibidagi birinchi masala sifatida qo'yildi. Respublika Prezidentining bu boradagi qator farmonlari, xukumat qarorlari fikrlarimizni tasdiqlaydi. Buni jamiyatimizning ma'naviy darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri deyish mumkin.

Har bir jamiyatning ma'naviyat darajasi uning iste'dod egalarini, umuman, iqtidorli shaxslarni qadrlash, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, kamol topishlariga yetarli shart - sharoitlarni ta'minlab berishi bilan ham belgilanadi. Rivojlangan, ma'naviyatli jamiyatda iste'dod egalari millatning yuzi, g'ururi va kelajagi deb qaraladi. Bizning jamiyatimiz ham shu yo'ldan bormoqda.

Eng muximi, o'tkaziladigan barcha tadbirlar milliy g'oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillari ruhida bo'lib, yoshlarimizda sog'lom dunyoqarash, yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga, ularning ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilishi, xalqimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarning tug'riligiga ularni ishontirishi kerak. Faqat shundagina xar bir tadbir o'zining mafkuraviy vazifasini bajargan bo'ladi.

II-BOB. BO'SH VAQT VA MADANIY – HORDIQIY FAOLIYATNING TAQOZODORLIGI

2.1. Bo'sh vaqt: tushunchasi, turlari, xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati .

Vaqt abadiy harakatadir. Bu harakatni hech bir kimsa na to'xtata oladi, na orqaga qaytara oladi. Vaqt shunday bir bebaho boylikki, uni na sotib, na qarzga olib bo'ladi.

Vaqt hech qachon kutib turmaydi: muayyan bir vaqt ichida biron-bir foydali ish qilsangiz ham, hech narsa qilmasangiz ham, u o'taveradi. Ammo inson muayyan vaqt ichida foydali, unumli bir ishni bajara olishga ulgura olishi va undan oqilona foydalanib qolishi kerak.

Insonning ichki ruhiy olami, psixologiyasi shunday tuzilganki, u hayot go'zalliklaridan bahra olishga, lazzatlanishga intiladi. Buning uchun esa bo'sh vaqt qulay imkon .

Inson vaqt o'tishi bilan ulg'ayadi. Biroq, uning kelajakda qanday inson bo'lib voyaga yetishishi vaqt deb atalmish bebaho boylikdan samarali foydalanishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Xalqimizda "Vaqtning ketdi – naqding ketdi", degan gap bor. Darhaqiqat, vaqtdan oqilona foydalana olgan kishilargina baxtiyor bo'lib, hayotda ko'p narsaga erishadilar, jamiyat uchun foydali ish qilib, munosib nom qoldiradilar. Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish xayrli ishlarni amalga oshirishda o'ta muhim ahamyat kasb etadi.

Bo'sh vaqt tushunchasi nisbiy bo'lib, uni "erkin vaqt" deb ham atash mumkin. Chunki, insonning kundalik mehnatdan, turmush tashvishlaridan xoli bo'lib, madaniy dam olishi bo'sh vaqtdir.

Odatda, kishining vaqtini ikkiga — ish vaqti va ishdan tashqari vaqtga bo'lishadi.

Ish vaqti — ishlab chiqarish, jamiyatning moddiy boyliklarini yaratish, shaxsiy moddiy ehtiyojini qondirish uchun sarf bo'ladigan vaqt miqdori. Bunday mehnatning maqsadi faqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish bo'lib qolmay, balki jamiyat boyligini rivojlantirish, mamlakat moddiy texnika

bazasini mustahkamlashdan iboratdir. Ish vaqti yillik vaqt byudjetining o'rtasida 17% ni tashkil qiladi.

Ishdan tashqari vaqt *deganda, belgilangan ijtimoiy foydali mehnat vaqtidan tashqari inson hayoti–turmushi uchun zaruriy vaqt ham va dam olish uchun zarur bo'lgan bo'sh vaqt ham tushuniladi.*

Zaruriy vaqt —*inson hayoti va turmushi ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli damlar.* Uni taxminan quyidagi qismlarga bo'lish mumkin: a) mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan tushki tanaffus, ishga borish va kelish uchun sarflanadigan vaqt; b) oila ehtiyoji uchun, bolalar tarbiyasi, ovqat tayyorlash, bozor qilish, do'konlardan kerakli buyumlarni sotib olish, uy jihozlarini, kiyimlarni tartibga keltirishga ketadigan vaqt; v) fiziologik ehtiyojlar, ovqatlanish, gigiyena va uxlash uchun sarflanadigan vaqt.

Bo'sh vaqt- dam olish, charchoq chiqarish, ma'nan va jismonan rivojlanish uchun sarflanadigan vaqt. Undan qanday foydalanish har kimning o'z ixtiyorida bo'ladi. Bo'sh vaqtda bilim va malaka oshirish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, sport va havaskorlik ijodiyoti bilan shug'ullanish, madaniy xordiq chiqarish, sayr qilish kabi ko'plab faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lish tushuniladi.

Agar kishilarning kundalik (24 soat) umumiy vaqt byudjetini 4 qismga bo'lsak, uning bir qismini – ish vaqti (7-8 soat), ikkinchi qismini – bo'sh vaqt (4-5 soat), uchinchi qismini – uyqu (7-8 soat) qolgani qismini boshqa zaruriy faoliyatlar – ishga borish uchun transportda, piyoda yurish va hokazolar (4-5 soat) tashkil qilar ekan.

Bo'sh vaqt miqdoriga ko'ra dam olish, haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari va yillik dam olishlarga bo'linadi.

Kundalik dam olish – bir kun davomida, ya'ni ish vaqti tugagandan keyingi faoliyatni o'z ichiga oladi. Kundalik dam olish faoliyatlari ichidagi keng tarqalganlari toza havoda sayr qilish, radio va televideniye dasturlarini eshitish va tomosha qilish, kitob mutolaa qilish, badan tarbiya bilan shug'ulanish kabilarni kiritish mumkin.

Haftalik dam olish- shanba va yakshanba kunlari bajaradigan faoliyatlarni

o‘z ichiga oladi. Bu dam olish kunlari tavsiya etiladigan faoliyatlarga shahar chekkasidagi sayilgohlarga chiqib hordiq chiqarish, qarindosh – urug‘, yoru do‘stlardan xabar olish, tomorqa ishlari bilan shug‘ullanish nazarda tutiladi. Kundalik va haftalik dam olish mazmunli va maroqli o‘tishida madaniyat va san’at muassasalari va sport to‘garaklari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Odatda xursandchilik, shodlik va quvonchga boy dam olish lahzalari bayram kunlari namoyon bo‘ladi. Unga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi, eng yaxshi liboslar kiyiladi, lazatli taomlar tayyorlaniladi. Aynan shu kunlarda televideniye, radio, madaniyat va san’at muassasalari o‘zlarining eng yaxshi dasturlarini namoyish etadi.

Har yilda bir marta dam olish - har yil qonuniy ravishda haq to‘lanib, hordiq chiqarishga imkoniyat beruvchi ta‘tillardir. Bunga sog‘likni mustahkamlash uchun sanatoriylar, turistik bazalarda dam olish va shu kabilar kiradi.

Bo‘sh vaqt shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun bebaho ne‘matdir. Chunki bo‘sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs ma‘naviyatining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Pirovard natijada bo‘sh vaqt mehnat unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. “Yaxshi dam – mehnatga xamdam”, deydi xalqimiz. Agar inson qanchalik yaxshi va unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. O‘z navbatida shu narsa etiborga molikki, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko‘ngildagidek mehnat qila olmaydi. Shunday ekan bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf bo‘lgan kuch quvvatlarini tiklash, sog‘liklarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

Dam olish vaqti — bo‘sh vaqtning bir bo‘lagi bo‘lib, eng avvalo , insonning ishlab chiqarishda sarf bo‘lgan kuch-g‘ayratini tiklash, charchaog‘ini chiqarish uchun xizmat qiladi.

Fan-texnika taraqqiyoti, kompyuter texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, qo‘l mehnati tobora mexanizatsiyalashgan va bo‘sh vaqt tobora ko‘payayotgan hozirgi paytda aholining madaniy dam olishini tashkil etish muhim masalalardan biriga aylandi. Binobarin, bo‘sh vaqt zamirida shaxs va

butun jamiyatning rivoji, kishilarning ma'naviy boyishlari, sog'lom bo'lishlari umrlariga umr qo'shilishi uchun, ular hayotini yanada mazmunli va rang barang qilish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud.

Madaniy dam olish insonning bo'sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo'lishda ma'naviy- estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog'lom bo'lishida muhim omillardan hisoblanadi. Dam olishning bunday shakliga keyingi vaqtda juda katta e'tibor berilmoqda. Bu esa o'z navbatida dam olish madaniyatini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad — kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlash bilan birga, ularni har tomonlama ravnaq topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Sotsiologlarning hisob-kitoblaricha, asosiy ishdan tashqari shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyat turlari 500 taga yetar ekan. Ularga zaruriy vaqtdagi yumushlar ham kirib, soch oldirishdan hammomga tushishgacha, davolanishdan mehmondorchilikka borishgacha, tomorqa uchastkalardagi ishlardan uy hayvonlarini parvarishlashgacha, uyni ta'mirlashdan to baliq ovigacha bo'lgan faoliyatlar ham kiradi. Bo'sh vaqt faoliyatlarining 150 tasidan dam olish faoliyatisifatida foydalansa bo'lar ekan (ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug'ullanish, sport bilan mashg'ul bo'lish, do'stlar bilan o'zaro muloqotda bo'lish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish va hokazolar kiradi).

Bosh vaqtning har bir daqiqasi rejali, oqilona, samarali foydalangan kishi hayotda ko'p narsalarga erishishi mumkin. Taniqli sotsiolog olim S.N.Ikonnikova o'zining "Madaniyat haqida suhbatlar" kitobida ko'plab tadqiqotlar natijalarini tahlil qilar ekan, bo'sh vaqtdan turlicha foydalanuvchi kishilarning olti toyifasini ko'rsatib o'tadi.

Birinchi toyifadagi kishilar bo'sh vaqtlarini soniyalarini ham qadrllovchi insonlar toyifasiga kiradilar. Ular uchun vaqt oliy hakam va barcha ishlarini tez amalga oshirishga intiladilar. Bu toyifadagi kishilar madaniy hordiq olishni yoqtiradilar ya'ni qiziqarli kitob o'qish, spektakil tomosha qilish, kino, tadbir

hamda konsert tomosha qilishni muhim deb hisoblaydilar va albatta rejalashtirgan bo'sh vaqtda hohlaganidek madaniy hordiq olmasa, o'zini juda koyiydigan insonlar toyifasiga kiradi.

Ikkinchi toyifadagi insonlar asosiy bo'sh vaqtlarini qiziqishlariga bag'ishlaydilar. Bu toyifadagi insonlar qiziqqan mashg'ulotiga butun fikrini jalb etadilar. Masalan, ijodning bir turi bilan individual shug'illanadilar.

Uchinchi toyifadagi insonlar kun davomida bo'sh vaqtlarini o'z kasbiga bag'ishlaydilar. Aytaylik bo'sh vaqti bo'lganida ishini kamchiliklarini to'ldiradi. Bundan tashqari bu toyifadagi insonlar bo'sh vaqtlarida o'z mahoratlarini oshirishga bag'ishlaydilar. Masalan, rassomlar, artistlar, yozuvchilar ushbu toyifaga kirishadi.

To'rtinchi toyifadagi kishilarni bir so'z bilan aytadigan bo'lsak erinchoq insonlar deyish mumkin. Ular uyda o'tirishni maqul ko'radilar hamda kinoga borish, bog'da sayr qilish, spektakl tomosha qilish, parklarga borishdan ko'ra uyda o'tirishni yoki soatlab televizor tomosha qilishni ustun ko'radilar.

Beshinchi toyifadagi kishilar yolg'izlikni yoqtirishmaydi. Ular ko'proq do'stlari, yaqin insonlari, oilasi bilan ko'proq vaqtini o'tkazishni ho'xlaydilar. Nima ish boshlamoqchi bo'lsa, uni yonida albatta kimdir bo'lishi shart. Shu sababli ham u yakka o'zi mustaqil biron ishga qo'l ura olmaydi. Odatda bunday kishilar mustaqil bir qarorga kela olishmaydi.

Oltinchi toyifadagi kishilar "Menga tegma, men senga tegmayman" kishilar sirasiga kiradilar. Ularga vaqt o'tayotgani qiziqtirmaydi. Ular uchun hech narsa ahamiyatli emas, ular ma'naviy qashshoq kishilar toifasidan, ular uchun kunlik ehtiyojlar bo'lsa bas.

Inson oragnizmi shunday tuzilganki, unda xilma xil faoliyat turlari muntazam takrorlanib turadi. Shunga qaramay ko'pchilik kishilar asosan bir hil faoliyat bilan mashg'ul bo'lishadi. Jumladan:

- *Aqliy faoliyat:* ko'proq olimlar, ijodiy xodimlar, ijodiy xodimlar, ilmiy texnik xodimlar ishida namoyon bo'ladi

- *Jismoniy faoliyat:* asosan ishchilar, dehqonlar, sportchilar, xizmatchi

hodimlar ishida namoyon bo'ladi.

• *Emotsional-ruhiy faoliyat:* vrach, o'qituvchi, tarbiyachi, aktyor, san'atkorlar va boshqa kasb egalarining ishida namoyon bo'ladi.

Inson yuqoridagi faoliyat turlari bilan muntazam shug'illanib tursa, qiziqqan sohasiga nisbatan qobilyati oshib, normal hayot kechiradi. Inson jismoniy menat bilan tinmay, to'xtovsiz mashg'ul bo'laversa, aqliy salohiyati zayiflasha borishi mumkin. Bu esa unung sog'ligiga ham ta'sir etishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun inson tinimsiz jismoniy harakatdan so'ng, aqliy yokida jismoniy madaniy hordiq turi bilan shug'illansa ya'ni bir faoliyat turidan ikkinchi bir faoliyat turiga o'tsa unda o'zgarish paydo bo'lib barcha ishi ijobiylashadi. Xullas, dam olish faoliyat almashtirish degan edi L. Tolstoy. Ijodkor dunyo tan olgan asarlarini yozayotgan paytda, maktabda dars bergan hamda muntazam vilosiped haydagan. Shu sababli ham o'zi uzoq umr yashadi va asarlari muvofaqiyat qozonib, dunyo yuzini ko'rdi. Shuning uchun inson asosiy ish jarayonidan bo'sh vaqt topganida albatta qandaydir faoliyat turi bilan shug'illanishi lozim.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma'naviy boylik sifatida o'tib kelayotgan an'anaviy dam olish usullari mavjud. An'anaviy dam olishning bir necha xillarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Jumladan, ko'ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan mehnat faoliyatidan keyingi insonning ham jismoniy, ham ruhiy charchog'ini chiqarish maqsad qilib qo'yiladi. Bularga: choyxo'rlik, oshxo'rlik, xarifona (xarfana, xalfana), sayr, sayil – dala sayli, tog' sayli, bog' sayli, gul sayli, suv sayli, do'stlar davrasi, suhbat va shu kabilar kiradi. Bunday tadbirlarda inson ko'ngli yozilib, charchoqlarini ma'lum darajada unutadi, kayfiyati ko'tariladi. Ma'rifiy-hordiqiy tadbirlar sirasiga kiritiladigan turkum dam olish madaniyatida asosan ma'rifiy jihatga e'tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqliy jarayonlar bilan bog'liq xususiyatlar talab etiladi. Bo'sh vaqtda hayot, yashash uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, tajribalarni dostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparchilik, maqolbilarlik, mushoira, bahri-bayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik, g'azalxonlik, ruboiyxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik va shu kabi ma'rifiy tadbirlar orqali

olish mumkin.

Bo'sh vaqtda sevimli ijodiy mashg'ulot bilan shug'ullanish an'analari ham mavjud. O'zbek xalq an'anaviy ijodiy dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Og'zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik, lofchilik kabilar.
2. Musiqa - qo'shiq - musiqa ijro qilish, terma, qo'shiq, Alla, yalla, laparlar ijro etish.
3. Teatr-tomoshaviy ijod–masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik, afsungarlik va hokazo.
4. Amaliy san'at– tikish, to'qish, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, o'ymakorlik va shu kabilar.

Bayram-marosim hordig'i. Hayotdagi muhim hodisalar sanalarini nishonlash jarayonida dam olish. Bayram-marosim hordiqalarini ham o'z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog'liq mavsumiy bayram-marosimlar:

«Navro'z» - tarixda bu bayram yil boshi bayrami sifatida mashhur bo'lgan. Bahor kelishi, tabiat jonlanishi, dala mehnati boshlanishi, sayillar, maxsus tomoshalar, o'yinlar bahoriy taomlar pishiriladi.

«Sumalak bazmi» - bahoriy taom bo'lib, qo'ni-qo'shni, yaqinlar bilan tomoshalar uyushtirib, o'yin-kulgi qilib pishiriladigan taom pishirishga bag'ishlangan sayli.

«Boychechak» - Erta bahorda, qorlar erishi bilan birinchi yer tagidan unib chiqdigan gulag bag'shlangan bolalar bayrami. Bolajonlar birinchi bo'lib terib, qariyalarga ulashishgan va suyunchi olishgan.

«Qizil gul sayli» - dalalarda, ko'kalamzorlarda lola-qizg'aldoqlar ochilgan paytda uyushtiriladi. Sayilda ishtirok etuvchilar raqsga tushib, ashulalar ijro etishadi, gullar terib bir-birlariga hadiya etishadi.

«Suv sayli» - O'rta Osiyo iqlimi issiq bo'lganligi sababli suvga bo'lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakillangan. Sayilda ishtirok etuvchilar suvni ezozlashgan.

«Qovun sayli» - polizlarda, bozorlarda ushbu sayl o'tkazilgan bo'lib, ko'rgazmalar uyushtirilgan.

«Uzum sayli» - bog'-rog'larda o'tkazilgan bo'lib, bog'bonlar eng yaxshi uzum navlari bilan musobaqalashishgan hamda savdo uyushtirishgan.

«Birinchi qor» - ilk qor yog'ganida tadbir boshlangan hamda «Qor xat» yozib yaqinlarga yuborishgan.

2. Inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan marosimlar – «Suyunchi», «Ismlash», «Beshik to'yi», «Ilk qadam», «Sunnat to'yi», «Muchal yoshi», «Nikoh to'yi», «Payg'ambar yoshi» va hokazo.

3. Diniy marosimlar – «Ro'za hayiti», «Qurbon hayiti», «Mavlud» va boshqalar.

Ijtimoiy foydali dam olish an'analariga bo'sh vaqtda odamlar uchun xayrli va foydali xizmatlar qilish – yaqin, qarindosh, ota-ona, ustozlardan xabar olish, kambag'al, yetim, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, to'y-ma'raka, hashar, xayriya ishlarida qatnashmoq, muqaddas joylarni ziyorat qilmoq kabilar kiradi.

O'zbek xalqining turli tabaqalari, guruhleri orasida ham o'ziga xos dam olish an'analari bo'lib, bolalar, qizlar, erkaklar, ayollar, yoshi ulug'larning madaniy dam olish shakllari bir-biridan farq qiladi.

Dam olish shakllarining turi, ma'rifiy, ijodiy dam olib, hordiq chiqarish maskanlari, usullari qanchalik ko'p bo'lsa, uning manbalari, uslublari, yo'l-yo'riqlari ham shunchalik ko'p. Ularning bitta umumiy xususiyati, oliy maqsadi bor, u ham bo'lsa dam olish orqali hordiq chiqarish bilan bir qatorda ma'naviy boyish, yoshlarga o'rnak, namuna ko'rsatish yo'li bilan ularni tarbiyalash, xalqimizga munosib vorislarni voyaga yetkazish.

Ajdodlarimiz asrlar davomida:

- yosh avlodni bilimli, uquvli, ilm-ma'rifatli bo'lishi, kasb-hunar egallashi uchun sharoitlar yaratgan;

- turli qadriyatlar, rasm-rusmlar, odatlarni amalga oshirgan;

-rang-barang harakatli, aqlni o'stirish o'yinlarini o'ylab topgan, hayotga joriy etgan, bola tarbiyasida «Sog' tanda – sog'lom aql» shioriga amal qilgan;

- sogʻlik, salomatlikning yoshlikdan qadriga yetish, vujud sogʻligi, aql-tafakkur sogʻligi, tiniqligi, turmush, oila, muhit sogʻlomligi haqida qaygʻurmoq lozim. Bunda albatta, dam olib hordiq chiqarish, maʼrifiy-ijodiy, aqliy-ruhiy charchoqlik, toliqishning oldini olishga ham alohida ahamiyat bergan.

Salomatlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash, saqlab rivojlantirish, kamolga yetkazish bilan bogʻliq behisob udumlarimiz, odatlarimiz orasida maʼrifiy-ijodiy hordiq chiqarish, dam olish alohida oʻrin tutishi bejiz emas. Bular:

1. Qadim-qadimlardan ota-bobolarimiz, momo-onaxonlarimiz farzandlarining pokiza boʻlishlariga alohida eʼtibor berar ekanlar, ozodalik va dam olishga eng asosiy diqqatni qaratganlar. Maʼrifiy-ijodiy dam oldirish orqali (uning turlari, tizimlari, usullari juda koʻp) yoshlarda, xususan, bolalarda xushdamlik, quvnoqlik, dil-dildan kula olishlik, yaxshi kayfiyat, vaqtichogʻlik, tetiklik, bardamlik, eng asosiysi maʼnaviy sogʻlomlik ruhida tarbiyalashdek omillarni qoʻllaganlar. Demak, sogʻlom, quvnoq, tetik tanda ruhiy sogʻlik boʻlishini esdan chiqarmagan holda ish tutganlar.

2. Hazil-mutoyiba, askiya, lutf, qiziqchilik, xirgoyi, shirin soʻz, shirin muomala, chiroyli, yoqimli soʻzlarni qoʻllash, amalga oshirish orqali bolada maʼrifiy-ijodiy dam olish, hordiq chiqarishni, demak jismoniy va aqliy sogʻlom boʻlib oʻsishni taʼminlaganlar. Maʼrifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarishning uddasidan chiqa olganlar, uni toʻgʻri, maqsadga muvofiq tashkil eta olganlarida sogʻlom avlodning yetishib chiqishi va yuksak fazilatlarga ega boʻlishi tajribalar sinovidan oʻtgan haqiqat ekanligi barchaga ayon. Xalqimiz: «Kuling, kulish umrni uzaytiradi», «Yaxshi kayfiyat – yaxshilikka olib boradi, yomon kayfiyat yomonlikka olib boradi», -deb bejiz aytmagan.

3. Xalqimiy maʼrifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish orqali yosh avlodni turli xil asabbuzarlikdan, arzir-arzimas gap soʻzlar, mayda-chuyda ishlardan jigʻibiyron boʻlish, dilxunlikka berilish, ruhan ezilish kabi inson umrini qisqartiruvchi holatlarga yoʻl qoʻymagan. Buning davosi ham maʼrifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish boʻlgan. Bunda xalq ogʻzaki ijodi namunalari, dostonlar aytish, qoʻshiqlar kuylash, ertaklar aytish, maqollar, hikmatli soʻzlar,

topishmoqlar, tez aytish, bolalar folklorining xilma-xil janrlaridan foydalanish, xalq milliy o‘yinlarini o‘ynatish, adabiyot, san’at, tarix va boshqalarni qo‘llay bilish orqali, badiiy so‘zni ishga solish, yaxshi ishlarni amalga oshirish bilan bajarilgan.

Xalqimizning odaticha, ko‘pchilikning tasdiqlashicha, kulgu shifobaxsh chashmadir. Kulgu – sog‘lik, yaxshi kayfiyat, tetiklik va bardamlik, jismoniy bardam-baquvvatlik, aqliy-ruhiy tetiklik, hayotga, kelajakka umid-orzu, yashashdan qanoat hosil qilish, totuvlik, ishonch, e‘tiqod omilidir. Kulgu nafaqat sog‘lom avlod taqdirida, balki ijtimoiy faoliyatda, ma’naviy- ijodiy hordiq chiqarib dam olish, ruhni tetiklashtirib, hayotga muhabbatni oshirish, yashash istagini kuchaytirishdir. Ha, kulgu, yaxshi kayfiyat oqilona tashkil etilgan ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish – har qanday odamni yashartiradi, umriga umr qo‘shadi, ishda unumni oshiradi, oila, jamiyatda yaxshi muhit yaratadi. Uning yana bir xususiyati, jahlni tushiradi, yomon kayfiyat, holat, vaziyatni yaxshilik tomon buradi. Yomon kayfiyat, jahl esa – inson umrini egovlaydi, bevaqt xazon bo‘lishiga olib keladi. Kulgu, lutf, yaxshi kayfiyatni ta’minlovchi ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam olishning ijtimoiy ahamiyati, umrimiz uzayishi, sog‘lom avlod yetkazishdagi hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan ahamiyati ham ana shunda.

4. Xalqimizda «Sayohat – tanga rohat», «Yaxshi dam mehnatga hamdam», «Bir nafaslik rohat Sulaymon taxtidan afzal», «Yaxshi dam olding – ishingga unum solding» kabi o‘nlab maqollar, iboralar, ko‘pdan-ko‘p afsona va rivoyatlar va boshqalarda dam olib, hordiq chiqarishning kishi salomatligi, ruhan tetikligi, aqliy va jismoniy kamoloti borasidagi ahamiyati teran ifodalangan.

Shunday qilib, dam olib, hordiq chiqarishning foydali tomonlari xalqona odobnomaning sahifalarida behisob. Sog‘lom avlod, komil avlod tarbiyasida dam olib, hordiq chiqarishning, ya’ni ma’rifiy-madaniy hordiqning ko‘rinishlari taxminan shunday:

1. Oilada ma’rifiy-ijodiy hordiq chiqarib dam olish. Buning usullari, tizimlari behisob.

2. Jamoa joylarida ma'rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish. Buning ham o'ziga xos yo'llari, uslublari juda ko'p.

3. Sayohatlar, turizm yo'llari bilan ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

4. Yakka tartibda, jamoa bo'lib ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

5. Ziyorat joylarga, qadimiy maskanlar – ko'hna shahar qoldiqlari, qal'alar, qo'rg'onlar qadamjolarga borib dam olib hordiq chiqarish.

6. Tabiat qo'yniga – tog'u toshlar, qir-adirlar bag'riga, soylar, ko'llar, daryolar bo'ylarida, so'lim go'shalar va boshqa joylarda ma'rifiy-ijodiy dam olish va hordiq chiqarish.

7. Madaniyat va istirohat bog'larida, hayvonot bog'larida, botanika bog'lariyu san'at, adabiyot, tarix, etnografiya, tabiat, sport, tibbiyot, turli fanlar, kasbhunarga oid muzeylar, ko'rgazmalar, anjumanlarda ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish va hokazo.

An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqeadir. Chunki, bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi. Barcha davrlarda bayramlarga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ularning darajasi turlicha bo'lgan. Masalan, SHO'rolar davlati o'z davrigacha mavjud bo'lgan barcha azaliy bayramlarni inkor etib, Yangi sovet bayramlarini hayotga joriy etdi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston rahbariyati eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov farmonlari asosida «Navro'z». «Ro'za hayit», «Qurbon hayit»lar rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan ikki bayram – «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O'qituvchi va murabbiylar kuni ham alohida bayram sifatida rasman qabul qilindi. O'z navbatida O'zbekiston rahbariyati SHO'rolar davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni ta'qiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni

targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Bayramlar qadim davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarbiyaviy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgidir. Bayram insoniyatning o'zi bosib o'tgan yo'llarni chuqur anglashi, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlardan mag'rurlanishi, ertangi kunga umid bilan qarashiga yordam beradi.

Bayramlarni nishonlamaydigan shaxs, oila yoki jamoani topish qiyin. Har bir millat va davlatning ham o'z bayramlari bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, avloddan – avlodga o'tib, takomillashib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi tarixning «sovuq shamollari» - bosqinchilik siyosati va turli hukmdorlar tazyiqiga uchrab, nohaq yo'qotilgan, ayrimlari esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlaridan ajralsa-da, butunlay yo'qolib ketmagan. Ba'zilar esa xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Arxeologik qazilmalarda topilgan osori atiqalarda, qadimgi qo'lyozmalar, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ijodi namunalarida hozirgacha saqlanib qolgan ko'hna odatlarning aks etganligini ko'ramiz.

Bayramlar vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan «shodlik surati» baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar vaqtning o'ziga xos o'lchovi hisoblangan.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida talabga javob bermay qolgan an'ana va bayramlar asta-sekin unutila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgan an'analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro'z, Qovun sayli, Lola sayli, Hosil to'yi, Sumalak sayli va hokazo bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda.

Navro'zni bayram qilish O'rta Sharq va O'rta Osiyoda qadimda tarkib topgan an'anadir. U insonning juda qadimdan shakllana boshlagan ma'lum udum, urf-

odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari, atrof muhit, tabiat omillari bilan munosabatlari zaminida vujudga kelgan. Asrlar o'tishi bilan bu urf odatlar mamlakatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi zaminida keng yoyilgan, mazmunan boyigan hamda ma'lum o'lkalar doirasida tarqalib mustahkam an'anaga aylangan.

Navro'z bozor qoshidagi joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda uyushtirilgan. Odatda, bayramning birinchi kuni quyidagicha o'tgan: ertalab bayram boshlangandan keyin dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida sozandalar, navozandalar va boshqa san'atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan.

Navro'z bilan bog'liq tomosha kun sayin avjga chiqqan. Har xil musobaqalar, ko'pkari(uloq), poyga bayramning ko'rki bo'lgan.

Navro'z kunlari katta bozorlar (savdo-sotiqalar) tashkil qilingan va shirin taomlar tayyorlangan. Odatdagi ovqatlardan tashqari do'lma, yalpiz, ko'k piyoz va boshqa ko'katlar solingan taxsus taomlar pishirilgan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutgan.

«Sumalak sayli» (yoki «Sumalak bazmi») Navro'zning «shohona taomi» - sumalak tayyorlash, sumalakxo'rlikka bahishlangan marosimdir.

Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, uni pishirish jarayonida suhbatda bo'lishgan, hikoyalar, ertaklar va latifalar aytishgan. Vaqti kelganda o'yin-kulgi qilishgan. Sumalak tayyor bo'lgach, uni pishirishda qatnashganlar va mahalla ahli sumalakxo'rlik qilish uchun «sumalak sayli»ga taklif etilganlar. Sumalak sayli ishtirokchilari childirma chalib raqsga tushishgan, qo'shiqlar aytib, xursandchilik o'tilishgan. Sayil hazil-mutoyiba, o'yin-kungi bilan o'tgan. Asrlar osha nishonlanib kelayotgan «sumalak sayli» hozirgi kunda ham kishilarni o'zaro hamkorlik va birdamlikka chorlaydi.

Davlat arboblari «Navro'z» bayramini ta'qiqlashga ko'p urinishgan. Bu bayram kishilarning ozodlikka intilishini kuchaytirishi, ularni birlashtirishi mumkin, deb xavotir olishgan. Shuning uchun «Navro'z» istilochilar saroylarida, amaldorlar va din rahnamolari davralarida rasmiy bayram sifatida nishonlanmagan. Le-

kin bu tazyiqqa qaramay «Navro‘z» xalq orasida bayram qilinavergan. Shu boisdan ayrim shohlar va amirlar keyingi asrlarda o‘zini xalqparvar ko‘rsatish maqsadida «Navro‘z»ni bayram sifatida nishonlashga majbur bo‘lishgan.

O‘rta asrlarda «Navro‘z»ning falsafiy-badiiy mazmuni yanada kengaygan. Bu bayram haqida o‘davrnig deyarli barcha allomalari o‘z asarlarida ijobiy mulohaza bildirishgan. O‘rta asrlarda «Navro‘z»ning xalq turmushi va ma’naviy hayotidagi mavqei, fazilati va xosiyati haqida qomusiy bilim egalari Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy o‘z asarlarida yozishgan.

Beruniy «Navro‘z – olamning boshlanishi» desa, Firdavsiy «Navro‘z – bayramlar shohi» deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: «Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z» deydi. Qadimda yaratilgan yozma yodgorliklarda, jumladan, At-Tabariyning «Ta’rix», Al-Mas’udiyning «Muruj az-zahab», Hakim Termiziyning «Solnoma», Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Abu Rayhon Beruniyning «Al-osor al-boqiya» va «Geodeziya», Abul Qosim Firdavsiyning «Shohnoma», Umar Xayyomning «Navro‘znoma», Abul Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas’udiy» asarlarida Navro‘z uyg‘onish, yuksalish, go‘zallik bayrami sifatida ulug‘langan. Navro‘zning kelib chiqishi haqida ko‘plab afsonalar va asotirlar mavjud.

Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalarga qaraganda, yilboshi – Navro‘z bayramini o‘tkazish an’anasi miloddan avvalgi IV asrlardan e’tiboran keng tarqalgani ma’lum bo‘ladi. Ya’ni, bu qadimiy bayramning tarixi yigirmato‘rt asrdan ortiqroq vaqtga egadir.

Qadimiy Navro‘z odatlari ichida, odamlarning hayotimiz shirin bo‘lsin degan ma’noda bir-biriga shakar va shirinliklar hadya etishi; gullar taqdim qilishi, bir-biriga suv sepishi kabi o‘yinlar keng tarqalgan. Odatlar zamirida xalqning Yangi yil hosildorlik, mo‘l-ko‘lchilik yili bo‘lsin, degan ezgu orzusi yotadi.

Quyoshning Hamal burchiga kirishi, kecha bilan kunduzning barobar kelishi yil boshi hisoblangan. «Yangi kun» nomi bilan atalgan Navro‘z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an’anasi ham bo‘lgan. Shu kuni uy-joylarni tozalash, ko‘kat va gullar bilan bezash, ota-ona, yaqin kishilar bilan diydorlashish,

marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish xalq orasida odat tusiga kirib qolgan.

Navro‘z kuni odamlarning bir-biriga suv sepish an‘anasi Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholi o‘rtasida saqlanib qolgan. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib, to dalalarda ekin boshlanguncha davom etgan. Navro‘zdan oldin joylarda maxsus yig‘inlar bo‘lib, unda bayram raisi tayinlangan, tomoshalar, sayillar, musobaqalar o‘tkazish tadbirlari rejalashtirilgan. U odatda, boshlanishidan bir necha kun ilgari tayyorgarlik ko‘rilgan. Navro‘z bayramidan 15 kun oldin bug‘doy yoki arpa undirishga qo‘yilgan va uning maysasidan bayram kunlari sumalak qilingan. Yoshlar, qariyalar kechasi bilan uxlamasdan ertak va hikoyalar aytishib, o‘yin-kulgu bilan yaxshi niyatlar tilab, sumalakni kavlab, kutib olishgan.

Navro‘z – dala ishlari mavsumining boshlanishiga bag‘ishlangan bayram. Navro‘zning so‘nggi kunida dalaga qo‘sh chiqarish va yerga urug‘ qadash marosimi o‘tkazilgan. Bu marosim har joyda turlicha: «Ekish sayli», «Qo‘sh oshi», «Qo‘sh chiqarish» («Qo‘sh-moy») deb nomlangan. Mazkur an‘anadan ijobiy foydalanish natijasida hozirgi davrda respublikamizning ko‘p joylarida «Chigit qadash» kabi marosimning yangi zamonaviy shakli vujudga kelgan.

«Navro‘z» zamonga mos ravishda mazmunan boyib, shaklan rivojlanib bordi. Respublikaning ilg‘or olimlari, yozuvchilari va madaniyat xodimlari Navro‘z qadimdan davom etib kelayotgan haqiqiy xalq bayrami ekanligini, uning mohiyati tabiat qonuniyatlari bilan bog‘liqligi va uni eng yaxshi an‘analar asosida taraqqiy ettirish lozimligini ta’kidlaydilar. Buning natijasida Navro‘z haqiqiy xalq bayrami sifatida yanada keng nishonlana boshladi. Bu an‘ana hozirgi kunda o‘zining asosiy mohiyatini saqlagan holda yangi mazmun va zamonaviy jihatlar bilan boyib bormoqda chunki, hamma yerda Navro‘zning ramziy obrazlarini gavdalantiruvchi «Bahorxonim» bayramning asosiy qahramoni hisoblanadi. Odatda Navro‘z Bahorxonimning o‘z dugonalari bilan bezatilgan ochiq mashinada aholi yashaydigan ko‘chalarni karnay-surnay sadolari jo‘rligida aylanishi bilan boshlanadi. Bahorxonim qishloq yoki mahallalarning markaziy maydonlarida to‘xtab, o‘lkaga bahor kirib kelgani bilan aholini tabriklaydi. Hammani Navro‘z bayrami tantanalari-

ga taklif qiladi, shuningdek, joylarda o‘yin-kulgilar uyushtiriladi.

Bayramning ikkinchi qismi madaniyat va istirohat bog‘larida bayram qatnashchilarining Bahorjon, Paxtaoy va uning dugonalarini tantanali kutib olishi bilan boshlanadi. So‘ng ular bezatilgan minbarga taklif etiladilar. Bahorxonim bayram qatnashchilariga shodlik, do‘stlik va obodonchilikka oid uchta shart aytadi. So‘zining nihoyasida: «Turarjoyimiz yashil, obod, go‘zal va ko‘rkam bo‘lishi uchun har bir kishi bittadan daraxt ko‘chati o‘tqazsin!» deb barchani ko‘chat ekishga chorlaydi va o‘zi birinchilar qatorida belgilangan joyga nihol ekadi. So‘ngra boshqalar ham navbati bilan turli xil daraxtlar o‘tqazadilar.

Tantananing uchinchi qismida bahor, Yangi hosil yili boshlanishiga bag‘ishlangan tematik programma, ommaviy tomosha yoki teatrlashtirilgan konsert namoyish qilinadi. Bazm uyushtiriladi. Buning uchun sahna bayramga mos qilib bezatiladi va uning tevaragiga stol-stullar qo‘yiladi.

Bayramning teatrlashtirilgan dasturida bahorga bag‘ishlangan o‘yinlar, mehnatkashlarni ruhlantiruvchi turli mushoiralar, quvnoq qo‘shiq va raqslar, dramatik asarlardan lavhalar, askiya va intermediyalar o‘rin oladi.

Navro‘z bayramining to‘rtinchi qismida ommaviy sayillar, mahalliy xalq o‘yinlari, sport musobaqalari (kurash, otchopar o‘yinlari, shaxmat, shashka va yarmarkalar) tashkil etiladi.

Respublikamizda nishonlanayotgan Navro‘zning umum tomonlari ko‘p bo‘lsa-da, u turli joylarda mahalliy an‘analar asosida turlicha nishonlanadi.

Xususan, Farg‘ona viloyatining ko‘pchilik qishloqlarida «Navro‘z» bayramini tashkil qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. O‘sha kuni hovlilar, uylar, ko‘chalar tozalanadi, bezatiladi. Kechki payt esa kishilar bir-birlarinikiga mehmonga borishadi, keksalar izzat-hurmatda bo‘ladi, ota-onalar, ustozlar va tabarruk kishilardan xabar olishadi, o‘zaro arazlashgan, gina-kudurat qilganlar yarashtiriladi va hokazo. Navro‘zga bag‘ishlangan asosiy tomoshalar, sayillar, musobaqalar, ommaviy o‘yinlar va bazm uyushtiriladi.

Shahrisabzda Navro‘z g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuqori saviyada teatrlashtirilgan tarzda o‘tkaziladi. O‘rta Osiyoning buyuk allomalari Firdavsiy,

Beruniy, Umay Xayyom, Navoiy, Zavqiy va Muqimiyning Navro‘z haqidagi fikrlari, misralaridan, lirik parchalardan o‘rinli foydalanilganligi uchun ham bayram yuksak g‘oyaviy-badiiy mazmun kasb etadi.

Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Jomboy va Urgut tumanlarida Navro‘z tabiat qo‘ynida, tog‘ yon bag‘irlarida uyushtirilishi ayniqsa diqqatga sazovordir.

Tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan Urgut Navro‘zi o‘zining go‘zalligi, omma-viyiligi bilan diqqatni jalb etadi. An’anaga ko‘ra, bayramning rasmiy ochilishi marosimidan keyin mushoira boshlanadi. So‘ng badiiy havaskorlik va sirk jamoalari o‘z san’atlarini namoyish etadilar. Kun bo‘yi musiqa, sho‘x qo‘shiqlar tinmaydi. Masxarabozlar, dorbozlar va polvonlarning san’ati yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Yigitlar milliy kurash bo‘yicha bir-birlari bilan kuch sinashadilar. Eng yaxshi chavandozlar shu yerning o‘zida – tog‘ etagida ko‘pkari chopadilar.

Forish tumanining tog‘ yon bag‘irlaridagi qishloqlarda nishonlanadigan Navro‘z xalq milliy taomlari tayyorlash san’ati borasidagi o‘ziga xos ko‘rikka aylanib ketadi. Navro‘z bayram qilinadigan joyga har kimo‘zi havas bilan tayyorlagan taomlari bilan keladi. Navro‘z dasturxonida «shohona» taom – sumalakdan tashqari barak (ko‘k ildizdan tayyorlangan), qoqi(salati), yupqa (quymoq), go‘ja oshi, un oshi, kesgan oshi, kulchatoy, qatlama, qotirma, g‘ilmindi, shirvoz kabilarini tatib ko‘rish mumkin. Navro‘z malikasi Bahorxonim hay‘at a‘zolari bilan eng yaxshi pazandalarni aniqlab, ularni ma’naviy taqdirlashadi.

Navro‘zning yana bir ajoyib xislati bor: uning ochilishi marosimini ko‘rish mumkin-u, ammo bayramning yopilishini sezish amri mahol, chunki u ko‘chalar va uylarda uzoq davom etadi. Navro‘z har bir kishining qalbida bir yilga yetadigan yorqin taassurot, tetiklik qoldiradi. Navro‘z bayramidan keyin odamlar bardamlashgan va kuch-quvvatga to‘lgan holda yaxshi kayfiyat, ko‘tarinki ruh bilan ishga kirishadilar.

Ajdodlarimiz madaniy-ma’naviy qadriyatlarining gultoji hisoblangan Navro‘z bayrami qadimiy an’analarimizni bugungi zamondoshlarimiz estetik qarashlari bilan bog‘lovchi muhim vosita sifatida elimizga xizmat qilib kelmoqda.

Ma’lumki, oilaviy marosimlar o‘zbek xalq an’analarining asosiy va muhim

qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning ko‘pi bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag‘ishlangani uchun ham yoshlarning ma‘naviy kamol topishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek xalqi to‘yni yaxshi ko‘ruvchi xalq. Xalqimizda «Topganing to‘yga buyursin» degan ezgu tilak, duo bor. U to‘y qilaman, El duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman degan maqsada yashaydi. Shuning uchun to‘y o‘zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlarning tiklanish jarayoni milliy-ma‘naviy tiklanish jarayonidagi muhim hodisa bo‘ldi. Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaviy marosimlarga oid muammoli hodisalar ham ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, ko‘pgina iqtisodiy baquvvat oilalar ortiqcha dabdabali, haddan tashqarii ko‘p harajatlilar bilan isrofgarchilikka yo‘l qo‘yib to‘y o‘tkazsa, kam harajatlilar oilalarning rizqini qiyib, qarzga botib to‘y qilishmoqda. Ko‘pgina marosimlar, masalan, «Beshik to‘yi», «Sunnat to‘yi» oila, qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlar o‘rtasida o‘tkazilish o‘rniga, dabdabali bayramga aylantirib yuborilmoqda.

«Nikoh to‘yi»ga oid «Non sindirish», «Kelin ko‘rdi», «Kelin chorlar», «Kuyov chaqiriq» kabi odatlar alohida-alohida tadbirga aylanib ketmoqda. Ular ortiqcha dabdaba va katta harajatsiz, ixcham shaklda, oila a‘zolari, yaqin qarindoshlar ishtirokida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Joylarda katta to‘yga aylanib ketayotgan «Tug‘ilgan kun», «Beshik to‘yi», «Sunnat to‘yi», «Payg‘ambar yoshi» kabi marosimlar ham kichik, ixcham, oilaviy tadbir sifatida, yaqin qarindosh va ko‘ni-qo‘shnilar ishtirokida nishonlanishni taqozo etadi. Hozirgi o‘tish qiyinchiliklari davrida egalari o‘z boyliklarini targ‘ib qiladigan – «Kiyim ko‘rdi», «Sarpoyozdi», «Tugun qaytdi», «Eshik ochdi» kabi ortiqcha marosimlardan voz kechish kerak bo‘lmoqda. Hozirgi kunda to‘yning moddiy tomoniga emas, balki ma‘naviy jihatlarga alohida urg‘u berish lozim

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlari hamda intellektual o‘yinlar orqali shaxs kamolotiga ta'sir kuchidan samarali foydalanish usullari juda muhim o‘rin tutadi.

Masalan quvnoqlar va zukkolar tortishuvlari ko‘p yillardan buyon yoshlarni tarbiyalash vositasi bo‘lib kelgan. Topishmoqlar topish, baxribayt, tez aytishlar

ham aslida milliy asosdagi quvnoqlar va zukkolar tortishuvidir. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida radio va televideniya «Quvnoqlar va zukkolar» klublari namoyish etila boshlagach, bu tadbir xalq orasida, ayniqsa, o'quvchi va talaba yoshlar orasida keng tarqaldi⁸.

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarining tarbiyaviy ahamiyatini ta'minlaydigan muhim psixologik xususiyat shundan iboratki, ular musobaqa, tortishuv, raqobatni rivojlantirish orqali yoshlarning bilim olishga kishilar bilan munosabatga kirishishlarida muomalaga kirishishni kishilar bilan munosabat o'rnatishga bo'lgan intilishlarini kuchli rag'batlantiradi. Tortishuvda qatnashadigan jamoalar a'zolari musobaqaga tayyorgarlik ko'rish bosqichida belgilangan mavzu buyicha bilimlarni atroflicha to'plashga harakat qiladi. Tortishuv mavzulari, odatda, o'quvchi va talabalar olayotgan ixtisoslik bilan bog'liq ekanini nazarda tutsak, bu tadbir yoshlarning kasbiy o'sishi va yetuk mutaxassis bo'lishini ta'minlashda qanchalik muxim rol o'ynashini tasavvur qilish qiyin emas. Bundan tashqari, tortishuv jarayonida murojaat qilinadigan ma'naviy, axloqiy, estetik masalalar ishtirokchilarning kommunikativ madaniyati, ma'naviyati, axloqiy rivojiga kuchli turtki beradi.

Hozirda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni rag'batlantirish, ijodiy salohiyatini yuksaltirish va kata sahnalarga olib chiqish, yoshlar e'tiborini musiqa va san'atga qaratish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish va ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi "Bahor nafasi" xalqaro san'at festivali, "Musiqaga chorlaydi, yoshlar!" madaniyat haftaligi, "Seni kuylaymiz, zamondosh!" ko'rik – festivali, "Onam aytgan allalar" festivali, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari festivali, "Sozlar navosi" xalq cholg'u ijrochilari tanlovi Hamada YUNESKO representativ royxatiga kiritilgan "Shashmaqom", "Askiya" va boshqa madaniy me'ros namunalari boyicha hisoblanadigan eng muhim tadbirlarimizdir.⁹

Xalq an'analariga oid tadqiqotlar, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan

⁸ Suyunov A. "Ommaviy madaniyat" ko'lankasi yoxud ma'naviy taxdidlar haqida.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 2010 y

⁹"Harakatlar strategiyasi 2017-2021" Toshkent 2017

ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagilar ma'lum bo'ladi: Insonning tabiiy-hayotiy ehtiyojlar asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlari asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat, sulolalarning mahv etilishi, hukmdorlar, istilochilarning kelib ketishlari, hattoki hududdagi aholi tarkibi o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchi turkum bayram marosimlar esa ma'lum vaqtdan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishi uchun asos bo'lishi mumkin. Uchinchi guruh marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki hukmdorlarning xohish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lgandan so'ng barham topadi.

Respublikamizda qishloq mehnatkashlarining dam olishi shaharliklarnikidan biroz farq qiladi. Ularning bo'sh vaqtini aniq belgilash qiyin va qishloqdagi ularning bo'sh vaqti, ya'ni yozgi-kuzgi mavsumda shaharliklarnikidan kam, qishda esa ko'p bo'ladi. Shuningdek, ular bo'sh vaqtning ko'p qismini tomorqa va chorbog'da o'tkazishadi. Jumladan, qishloq madaniyati tadqiqotchisi H. Shorahimov bergan ma'lumotlarga qaraganda, qishloq aholisi bo'sh vaqtining 30-40 foizni tomorqa ishlariga, 20-30 foizi uy hayvonlarini parvarishlashga ketar ekan. Shaharliklar orasida ham tomorqa ishlariga qiziqish katta. Hatto, ko'p qavatli binolarda yashovchi oilalarning ham 5-10 foizga yaqini o'z tomorqa yerlariga ega bo'lib, ular bo'sh vaqtining bir qismini o'sha yerda o'tkazishadi.

Xullas, bo'sh vaqt, birinchidan, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, sarflangan kuchlarni tiklash, ikkinchidan madaniy-ma'rifiy boyliklarni egallash, uchinchidan, ijodiy va jismoniy faoliyatlar, ya'ni fizkultura, sport va badiiy havaskorlik bilan shug'ullanish, to'rtinchidan, ko'ngilli jamoat ishlari, ijtimoiy foydali mehnat turlari jamiyat ravnaqi uchun foydali ish, xolis xizmat qilish uchun zarur, dam olish turlari va imkoniyatlari juda ko'p. Har kim bo'sh vaqtdan qiziqishi, ixtiyori, mayli, dunyoqarashi, tarbiya madaniyatidan kelib chiqqan holda o'zi uchun ahamiyatlilarini tanlab olgan holda foydalanadi. Ammo kishi bo'sh vaqtini qanday o'tkazmasin, bo'sh vaqtning qadriga yetishi, undan samarali foydalanishi, o'zi uchun ham, atrofdagilar uchun ham nafi te-

gadigan qilib dam olishi muhim ahamiyatga molik.

2.2. Samarali madaniy-hordiqiy faoliyatning bo'sh vaqt imkoniyatlariga bog'liqligi.

Davlatimizda hozirgi kunda juda ko'p sohalar boyicha odamlar faoliyat olib borishadi. Bu insonlarning doimiy ish bilan mashg'ul bolishi, insonlarda zerikishga olib keladi va ishdan sovush holatlariga olib keladi. Bunday vaqtlarda davlatimiz insonlarni madaniy dam olishini tashkil qilishga harakat qiladi. Davlat ishida, zavod fabrikalarda va boshqa ishlaydigan xodimlarni madaniy dam olishini tashkil qilish uchun, o'sha davlat muassasalarida ko'ngil ochar tadbirlar tashkil qilib xodimlarning kayfiyatini ko'tarishadi. Davlat muassasalarining qoshida madaniy dam olish va hordiq chiqarish uchun sanatoriyalar tashkil qilingan bo'lib, o'sha muassasa vakllariga vaqti-vaqti bilan o'sha sanatoriyalarda dam olib kelishlari uchun sharoit yaratib beriladi. Davlatimizda madaniy dam olish uchun ko'plab sharoitlar yaratib berilgan. Yil davomida barcha soha vakllari uchun bir oylik dam olishga ta'til beriladi. Bu ta'til davomida madaniy hordiq chiqarish uchun xodimlar tog'larga saylga chiqishadi, har xil turdagi ko'ngil ochar tadbirlarda ishtirok etishadi.

Davlatimiz har bir soha uchun kasb bayramlarini tashkil qilib bergan. Masalan: Shifokorlar kuni, prokratura xodimlari kuni, temir yo'lchilar kuni, o'qtuvchi va murabbiylar kuni, ichki ishlar xodimlari kuni va shu kabi juda ko'plab soha vakllarini kasb bayramlari mavjud.

Bu davlatimizning madaniy dam olish uchun yaratib bergan imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Madaniy dam olishga e'tibor berish bilan, xodimlarning ish salohiyatlarini o'stirishga harakat qilinadi. madaniy hordiq chiqargan xodimning ish unumdorligi albatta yuqori darajada bo'ladi.

Mustabid davrda xalqimizning madaniy dam olshiga umuman e'tibor berilmagan. Paxta dalalarida tinimsiz mehnat qilgan xalqimizning dam olishi uchun hech qanday sharoitlar yaratilmagan edi. Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan aholining barcha qatlamlariga madaniy dam olishni tashkil qilishga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Masalan: Hozirgi kunda umummehtatkashlarning madaniy hordiq chiqarishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Paxta dalalarida javlon urib xizmat qilayotgan zahmatkashlarni rag'batlantirib turish uchun ko'plab madaniy dam olish tadbirlari, konsertlar, tomoshalar va shu kabi juda ko'plab qiziqarli madaniy dam olish kechalari tashkil qilinib kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar katta rol o'ynaydi. Masalan GOOGLE kompanyasini olsak, kompanya ofislari umummehtatkashlar hordiq chiqarishlari uchun alohida honalar ajratilgan, honarda hordiq chiqaruvchi oyin turlari stol tennisi, bilyard, kitob o'qish uchun o'rindiq va honachalar, musiqa eshitib kino ko'rishga mo'ljallangan maxsus xonalar mavjud bu imkoniyatlarning barchasi hodimlarga mativ berib ishida unum va samara bo'lib ishiga nisbattan yangicha kreativ yondoshuvini ta'minlab beradi deydi kompanya derektori.¹⁰

Professor U.H.Qoraboyev o'zining "Madaniy tadbirlar" nomli kitobida kuyidagicha fikr bildiradi: "Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va ular kishilarning ishdan bo'sh vaqtda kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham unga kengroq tushuncha va atama zarur bo'lmoqda. Ularni keng qamrovli "madaniy tadbirlar" deb atasa yaxshi bo'ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, "ommaviy tadbirlar", "badiiy tadbirlar" atamalariga ham murojaat kilish mumkin"¹¹ R.SH.Rustamovanning «Talaba- yoshlarni ma'naviy - axlokiy tarbiyalashda madaniy - ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari» mavzusidagi dissertatsiyasida esa «madaniy - ma'rifiy tadbirlar» atamasi qo'llanilib, «Madaniy - ma'rifiy tadbirlar deganda aholini ma'naviy -axlokiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam

¹⁰www. Google

¹¹Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar (Madaniy xordiq nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha o'quvqo'llanma). -T.: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003. -123 6.

olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat kiluvchi tadbirlar tushuniladi»¹² deb ta'rif beriladi.

Madaniyat muassasalarida ushbu tadbirlar shunchaki bo'sh vaqtni tashkil etish, mazmunli hordiq chiqarish, kerakli axborot bilan ta'minlash bilangina cheklanib qolmasdan, o'quvchi yoshlarni ma'naviy - axloqiy ruhda tarbiyalash, ular ongida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, bilim berish orqali dunyoqarashni shakllantirishga kat'iy yo'naltirilgandir.

Madaniyat muassasalarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar dastavval odamlarga ma'rifat rekreatsion naf berishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu boisdan ham U.Nosirovning quyidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi. "Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishga yo'naltirilgan tadbirlar madaniy tadbirlar hisoblansada, qatnashchilarga yangi bilimlar bermaganligi uchun ular ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lmasligi ham mumkin".

Bizningcha "madaniy - ma'rifiy tadbirlar"-eng avvalo milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma'naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, ularning mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy xarakterli majmuidir. Madaniy-ma'rifiy tadbir ta'lim-tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida uning asosiy maqsadi muayyan masala bo'yicha bilim berish bilan birga anglangan hatti-harakatga yo'naltirishdan iborat bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjuddir.

Birinchiidan, insoniy fazilatlarini ulug'lash, yuksak ma'naviyatli kishilar xayoti va faoliyatini ta'riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko'rsatish orkali kechadi. Ikkinchiidan esa - muayyan illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga da'vat, targ'ibot qilish orqali amalga oshiriladi va bunda erishilgan yutuqlarni xolisona e'tirof etib yo'l qo'yilgan kamchiliklar xolisona nuqtai - nazardan baholanishi

¹²Bekmatov A., Rustamova R. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar –T.: Ma'naviyat. - 2008. - 12 b.

muhim ahamiyatga egadir. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini biryoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirishga, faqat o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmasdan, bugungi kunda yon-atrofimizda faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or zamondoshlarimizni o'rnak sifatida ko'rsata bilish muhim ahamiyatga egadir. O'tmish va kechagi kun bilangina yashab qolmasdan, bugungi kundagi murakkab voqelikka tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usullari va vositalaridan foydalangan holda ish olib borish hayotning qat'iy talabidir. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda bugungi murakkab an'naviy, jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, buzg'unchi g'oyalarning kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, ma'naviy-tajovuzlar mohiyatini ochib berish alohida ahamiyatga ega. Ana shundagina madaniy-ma'rifiy tadbirlar mazmun-mohiyati bilan odamlar kalbiga va ongiga yetib boradi.

Madaniy dam insonning bo'sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo'lishda ma'naviy-estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog'lom bo'lishida muhim omillardan hisoblanadi. Dam olishning bunday shakliga keyingi vaqtda juda katta e'tibor berilmoqda. Bu esa o'z navbatida dam olish madaniyatini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad - kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlash bilan birga, ularni har tomonlama ravnaq topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Hozirgi zamon sosiologlarining hisob-kitoblaricha, asosiy ishdan tashqari shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyat turlari 500 taga yetar ekan. Ularga zaruriy vaqtdagi yumushlar ham kirib, soch oldirishdan hammomga tushishgacha, davolanishdan mehmondorchilikka borishgacha, tomorqa uchastkalardagi ishlardan uy hayvonlarini parvarishlashgacha, uyni ta'mirlashdan to baliq ovigacha bo'lgan faoliyatlar ham kiradi. Bo'sh vaqt faoliyatlarining 150 tasidan dam olish faoliyati sifatida foydalansa bo'lar ekan (ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug'ullanish, sport bilan mashg'ul bo'lish,

do'stlar bilan o'zaro muloqotda bo'lish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish va hokazolar kiradi). Xullas, madaniy dam olish va bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularni maxsus turkumlash kerak bo'ladi.

Professor U.H.Qoraboyev bo'sh vaqtdan unumli foydalanish va madaniy dam olish shakllarini shartli ravishda 4 turkumga bo'lish mumkin, deb hisoblaydi. "Har bir turkumda dam olish shakllari murakkablashib, samaradorligi ortib boradi.

Birinchi turkumga dam olishning eng oddiy shakllari – kam harakatli hordiq chiqarish charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin karavotda yotib charchoq chiqarish, ko'cha, parklar, xiyobonlardagi o'rindiqlarda, uyda divan, stulda o'tirib hordiq chiqarish, ochiq havoda sayr qilish, mehmonga borish kabilar kiradi. Bu hordiq chiqarishni ba'zida «faoliyatsiz dam olish» ham deyishadi. Vaqti–vaqti bilan shunday «passiv» dam olib turish ham kerak. Lekin asosiy maqsad passiv dam olishga vaqtni kamroq sarflab, ko'proq vaqtni aktiv dam olishga qoldirish darkor.

Ikkinchi turkum dam olish shakllari madaniy-ma'naviy boyliklarni egallash, ya'ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio va televideniye dasturlarini tinglab, tomosha qilish, teatr, kinoteatr va klublarda namoyish etiladigan kinofilm, spektakl va badiiy-ommaviy sahnalarni tomosha qilish kabilaridir...

Madaniy boyliklarni egallashda badiiy kitob, ilmiy, publisistik adabiyotlar o'ta muhim rol o'ynaydi. Kitob–insoniyatning barcha bilim tajribalarini o'zida mujassamlashtiradigan muhim vosita, oldingi avlodning keyingi avlodga qoldiradigan ma'naviy boyligi, kishilarning o'tmishi va hozirgi yutuqlari haqida ma'lumot beradigan bebaho manba.

Kitob insonning shakllanishida, bilim va dunyoqarashining kengayishi, kasb sirlarini egallashi, haqiqiy mutaxassis bo'lishida xizmat qiladi. Shu bilan birga, kitob kishilarning hayotini go'zallashtirish, mehnatini yengillashtirish, dam olishini yanada mazmunli bo'lishida ham xizmati katta. Shunday ekan,

madaniyatli, ma'naviy barkamol va bilimli bo'lishga ishtiyoqmand kishi daholar tomonidan yaratilgan kitoblarga intilishi, ularni sevib o'qishi va ma'naviy oziq olishi muhimdir. Bo'sh vaqtda bunday bebaho manbalarni egallash uchun kitob savdosi tarmoqlari, qiroatxonalar, kutubxonalar, axborot-kutubxona markazlari, axborot-resurs markazlari kabilarning xizmatidan foydalanish zarur.

Uchinchi turkum dam olishga ijodiy va jismoniy faoliyatlar bilan shug'ullanish, ya'ni badiiy havaskorlik, fizkultura va sport to'garaklariga katnashish kiradi. Agar ikkinchi turkum dam olish shakllarida asosiy madaniy meros o'rganilsa, uchinchi turkumda kishilarning o'zlari madaniy boylik yaratishda bevosita ishtirok etadilar. Masalan, havaskorlarning dramatik jamoasiga qatnashib, biron spektaklni sahnalashtirishlari yoki musiqa to'garagida qo'shiq va raqslar ijro etib, san'at asarlarini yaratishlari mumkin. Binobarin, havaskorlik ijodi keng tarqalgan ommaviy–madaniy hodisa hisoblanadi. Hozirgi davrdagi xalq ijodi festivalining asosiy maqsadi - ommani yanada kengroq xalq ijodiyotiga jalb qilish, mavjud havaskorlik faoliyatini yaxshilash, joylarda yangidan havaskorlik, drama, musiqa, raqs, tasviriy va amaliy san'at to'garaklari va uyushmalari ochishga yordam berishdan iborat.

To'rtinchi turkum dam olishga ijtimoiy foydali faoliyat turlari – jamoat ishlari, ya'ni ishdan tashqari vaqtda mehnat, o'quv jamoalari, turarjoylar aholisi uchun zarur bo'lgan yumushlarni amalga oshirish kiradi. Bu ko'ngilli, ayni vaqtda jamiyat ravnaqi uchun foydali ish xolis xizmat hisoblanadi¹³.

Bola tarbiyasi ijtimoiy foydali dam olish shakllari o'rtasida alohida o'rin tutadi. Chunki ota-ona faqat o'zlariga xizmat qiladigan farzandlarni emas, balki Vatanning munosib o'g'il-qizlarini voyaga yetkazishlari lozim.

Mehnatkashlarning asosiy ish vaqtidan tashqari dam olish kunlari o'tkaziladigan xalqimizning qadimiy an'alaridan biri - hashar va hozirgi shanbaliklar ham ijtimoiy foydali faoliyatlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki hashar natijasida binolar go'zallashadi, ko'cha va xiyobonlar

¹³ Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar.- B. 56 -59.

obod bo‘ladi, gulzorlar va bog‘-rog‘lar paydo bo‘ladi. Ijtimoiy foydali dam olish kishilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, ijtimoiy onglarini o‘stirishda, ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirishda ahamiyati kattadir. Bo‘sh vaqtda ko‘ngilli va havas bilan bajariladigan ishlarga, ma’lumki, pul to‘lanmaydi. Bu ish ma’naviy rag‘batlantirish maqsadida ham qilinmaydi.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar bo‘sh vaqtda shaxsning har tomonlama rivojlanishi va social-madaniy faolligini oshirish jarayonining o‘ziga xos vazifalari, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya berish, havaskorlik ijodiga jalb qilish, mazmunli dam olishini uyushtiradi va kishilarning bo‘sh vaqtini o‘tkazishda uzluksiz ta’lim va targ‘ibot-tashviqot ishlarini leksiya, suhbat, seminar, munozara, og‘zaki jurnal yordamida olib boradi, aholi dunyoqarashining kengayishida, bilim darajasining oshishida, siyosiy ongi, madaniy saviyasining o‘shishida muhim rol o‘ynaydi. Qolaversa, madaniy-ma’rifiy muassasalar xalq ijodini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ommani rang-barang badiiy havaskorlik faoliyatiga jalb etadi, aholining ijodkorlik qobiliyatini o‘stiradi. Klub muassasalarida aholi uchun ijodning ko‘pgina turlari bo‘yicha havaskorlik uyushmalari, to‘garaklari, studiyalari, halq teatrlari va xalq ansambllari ishlab turadi. Ular xalqning chinakam san’ati namunalarini ijod qilishiga imkoniyatlar yaratib beradi.

Shuningdek, madaniy-ma’rifiy muassasalar kishilarning madaniy dam olishiga ko‘mak beruvchi ko‘plab ommaviy tadbirlarni, ya’ni klub kechalari, badiiy kompozitsiyalar, diskoklub dasturlari, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, xalq an’analari, ommaviy bayramlar va sayillar kabi shakllarni tashkil qiladi. Mehnatkashlarning, ayniqsa, yoshlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish va dam olishini yaxshilash haqida g‘amxo‘rlik qilinayotgan joylarda bu maskanlar amalda ommaviy hordiq chiqaradigan va madaniy dam oladigan markazlarga aylangan. Hozir respublikamizning mingdan ortiq klublari, madaniyat uylari va saroylari, yuzga yaqin parklari mehnatkashlar ixtiyorida. Bu maskanlarda bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil qilish, odamlarning ko‘ngilli hordiq chiqarishlarini yo‘lga qo‘yishning xilma-xil shakl va usullaridan foyda-

lanilmoqda, bu sohadagi ishlar takomillashtirilmoqda.

Biroq, respublikamiz miqyosida aholining dam olish markazi bo'lmish klub muassasalariga oid muammolar ko'p. Birinchi muammo, qishloq klub muassasalarining moddiy–texnika bazasi talabga javob bermaydi. Buning ustiga respublikamizdagi qator aholi punktlarida klub muassasasi yo'q. Ikkinchi muammo — kadrlar masalasi. Bu sohaga rahbarlik qilayotgan va ishlayotgan xodimlarning ko'p qismi shu sohaning maxsus ma'lumotli mutaxassisi emas. Yana bir muammo, ko'pgina klublarda tadbirlarni tanlash va o'tkazishga aholining qiziqishi va talabi yaxshi e'tiborga olinmayotganligidadir. Buning natijasida tadbirlarga odamlar kam kelyapti. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, respublikamiz klub muassasalarida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar umumittifoq darajasidan ikki baravar kamdir.

Respublikamiz sharoitida, yozgi issiq iqlim muhitida aholining maroqli dam olishini ta'minlashda madaniyat va istirohat bog'larining o'rni bo'lakcha. Toshkent, Namangan, Andijon, Qo'qon, Kattaqo'rg'on shaharlari madaniyat va istirohat bog'lari mehnatkashlarning sevimli dam olish maskanlariga aylangan. Biroq O'zbekistondagi boshqa madaniyat va istirohat bog'larining ko'pchiligi kishilar ehtiyojlarini qondira olmayapti. Chunki ularning moddiy–texnika bazasi, olib borayotgan ishlari hozirgi kun talabidan ancha orqada qolmoqda. Shu o'rinda mavjud madaniyat va istirohat bog'lari ishlarini tubdan yaxshilash kerakligini, respublikamizning 25 millionga yaqin aholisi uchun 100 ga yaqin madaniyat va istirohat bog'i nihoyatda kamligini, issiq iqlim sharoitini hisobga olgan holda, ular sonini ko'paytirish masalalarini o'ylash lozimligini ta'kidlash joizdir.

Darhaqiqat, respublikamiz sharoitida aholining dam olishini tabiat qo'ynida, ko'kalamzorlashtirilgan zonalarda, soya-salqin joylarda uyushtirish yaxshi samara beradi. Bunday dam olish uchun, shubhasiz, maxsus joriy qilingan madaniyat va istirohat bog'lari eng qulay maskan hisoblanadi. Respublikamizdagi 100 ga yaqin istirohat bog'lari asosan yirik aholi punktlari va shaharlarda joylashgan. Axir, chog'roq aholi punktlarida yashovchilarning

ham madaniy vositalarga ega bo'lgan ana shunday bog'larda dam olgilari keladi. Bunday joylarda xuddi shahardagidek, katta madaniyat va istirohat bog'larini barpo etish qiyin, albatta. Ammo muammoni hal qilish mumkin, buning uchun konkret aholi sonidan kelib chiqib, ixcham istirohat bog'i qurish, unga klub va boshqa dam olish maskanlarini birlashtirish lozim.

Klub va istirohat bog'i har xil sharoitda (yopiq binoda va ochiq havoda) ish olib borsada, ularning maqsadi bitta - aholi dam olishini madaniy uyushtirish. Shunday ekan, o'rta va kichik aholi punktlaridagi klublarni va madaniy istirohat bog'larini birlashtirish lozim. Natijada «klub–bog'» sistemasi vujudga keladi, bu sistemaning afzalligi shundaki, o'tkaziladigan tadbirlar yozning issiq paytlarida soya–salqindagi ochiq zallarda o'tkaziladi, qishda esa yopiq klub zallariga ko'chiriladi.

Sport inshootlarining asosiy maqsadi kishilarni har tomonlama rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan jismoniy tarbiyani amalga oshirish, kishilar sog'lig'ini mustahkamlash, mehnat va jangovar faoliyatga tayyorlash uchun mashqlar, musobaqalar o'tkazishdan iborat. Keyingi vaqtlarda respublikamizda katta sportga ham, o'quv sport mashg'ulotlariga ham, ommaviy sportga ham katta ahamiyat berilmoqda. Hozir respublikamizda ko'plab stadionlar, sport maydonchalari, sport zallari, merganlik tirlari, suv havzalari ishlab turibdi. Bu sport inshootlarida futbol, to'pli xokkey, voleybol, basketbol, ko'l to'pi, tennis, gimnastika, akrobatika, boks, kurash, yugurish, sakrash, yadro, nayza uloqtirish, suzish, sinxron suzish, qilichbozlik, shtanga ko'tarish, otchoparlik, motovelo sporti, shaxmat–shashka seksiyalari va to'garaklari ishlab turibdi.

Keyingi vaqtlarda sportning ommaviy turlari, ya'ni yoshu qari, barcha qiziqib qatnashadigan ommaviy o'yinlar keng tarqalishiga alohida e'tibor berilmoqda. Joylarda «Salomatlik guruhlarini» ishlab turibdi, keng omma ishtirok eta oladigan «Sport bayramlari», «Salomatlik kunlari», «Yugurish kuni», «Velosiped sporti haftaligi» kabi ko'plab ommaviy sport tadbirlari uyushtirilmoqdaki, bunday sport tadbirlari kishilarning jismoniy rivojlanishi, sog'lom va ruhan tetik bo'lishida katta rol o'ynamoqda. Shuningdek, mahalliy sport

tashkilotlari fizkultura va sport ishqibozlariga «Salomatlik uchun harakat», «Butun brigada bilan stadionga», «Otam, onam va men - sportchilar oilasi» kabi ommaviy musobaqalarni tashkil qilmoqda.

Fan–texnika inqilobi tufayli insonning og‘ir mehnati tobora yengillashib, jismoniy mehnat o‘rnini aqliy mehnat egallay borgan sari mehnat kishilarining bo‘sh vaqti ko‘payib, normal, jismoniy sog‘lom, ruhan tetik rivojlanishlari uchun imkoniyat yuzaga kelmoqda.

Aholining sog‘lig‘ini mustahkamlashda, shaxsni kamol toptirishda, yoshlarni mehnat va Vatan himoyasiga tayyorlashda fizkultura hamda sportning ahamiyati ortib bormoqda. Bu boradagi ishni shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, har bir kishi yoshligidan o‘zining jismoniy barkamol bo‘lishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qila olsin. Shuning uchun ham insonning ma‘naviy dunyosini shakllantirishga xizmat qiladigan madaniyat muassasalari sog‘liqni mustahkamlaydigan sport inshootlari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Shunday ehtiyojlar asosida *qishloq, mahalla guzarlari — madaniy majmualar* vujudga kela boshlaydi. Ular aholining bo‘sh vaqtidagi ma‘naviy ehtiyojini to‘laroq qondirish uchun hamkorlikda ish olib boradigan muassasalar va tashkilotlar uyushmasi bo‘lib, bunday komplekslar deyarli ishlab chiqarishdan tashqari barcha muassasalar va tashkilotlarni, ya‘ni klublarni, madaniyat va istirohat bog‘lari, sport inshootlarini, kutubxonalarni, muzeylarni, xalq universitetlarini, musiqa va san‘at o‘quv dargohlarini, choyxona va dala shiyponlarini, jamoat tashkilotlarini o‘z ichiga oladi hamda ularning hamkorlikda ish olib borishini ta‘minlaydi.

Guzarlar yaxshi ish olib borayotgan joylarda aholining bo‘sh vaqtini uyushtirish darajasi oshmoqda. Mehnatkashlarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta‘minlashning ko‘pgina muammolari turli idoralar bilan birgalikda ijobiy hal etilmoqda. Yaxshi jihozlangan sport inshootlari, madaniyat saroyi, kinoteatr, kitob magazini dam olish kunlari kishilar bilan gavjum.

Respublikamiz qishloqlaridagi madaniy majmualarining tarkibiy va muhim qismi - dala shiyponlari bo‘lib, ular ishini yaxshilash, ularga boshqa muas-

sasalarning yordami muhimdir. Chunki respublikamizning tabiiy iqlim sharoitida dalada ter to'kib mehnat qilish miriqib dam olishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, madaniy majmualardagi dam olish tadbirlarining bir qismini tush vaqtida, dala shiyponida uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun yangi tipdagi dala shiyponlari zarur, toki, ular qishloq klublarining filiallariga aylansin. Xo'sh, bunday *dala shiyponlari* oldingilaridan nimasi bilan farq qiladi? Ular qanday afzalliklarga ega? Avvalo, ular dala ishlari mavsumida qishloq xo'jalik xodimlarining bo'sh vaqtini uyushtiruvchi boshlang'ich madaniy–ma'rifiy muassasa vazifasini o'taydi. Ularda erkaklar va ayollar uchun alohida dam olish xonalari, radio eshitish, teledasturlarni ko'rish va shaxmat–shashkalar o'ynash uchun maxsus xonalar, gazeta–jurnal va kitob o'qish uchun kichik qiroatxona, tadbirlar o'tkazish uchun ayvon (u kerakli paytda sahna vazifasini ham o'taydi) bunyod etiladi. Qolaversa, shiyponlar brigada a'zolarining maishiy turmush ehtiyojlarini qondiradigan maskanga ham aylanadi. Ish kunining birinchi yarmidan keyin u yerda yuvinish uchun dush, ovqatlanish uchun oshxona, ish kiyimlarini yuvish uchun maxsus joy, bolalar tarbiyasi uchun bog'cha kabi qulayliklar mavjud bo'ladi. Klubning filialiga aylangan bunday dala shiyponlarida qishloq xo'jalik xodimlarining madaniy dam olishini uyushtirishda, madaniyat va maishiy xizmat ko'rsatish xodimlari katta jonbozlik ko'rsatadilar.

Keyingi vaqtlarda *sayilgoh* - mehnatkashlarning dam olish zonalarini barpo etishga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur dam olish oromgohlari mehnatkashlarning, ayniqsa, shanba va yakshanba kunlari hordiq chiqarishlari uchun o'ziga xos maskan hisoblanadi. Shunday ekan, korxonalar va tashkilotlarda mavjud bo'lgan bunday oromgohlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xushmanzara va sof havoli tabiat qo'ynida bunyod etilgan dam olish uylari va sanatoriylar mehnatkashlarning yillik ta'til vaqtida ko'ngildagidek dam olishlarida, davolanib, sog'liqlarini mustahkamlashlarida muhim o'rin tutadi. Sanatoriylar kishilarning dam olishlari va davolanishlarini qo'shib olib bo-

radigan sogʻlomlashtirish muassasalari hisoblanadi. Birinchidan, tabiiy omillar (toza havo, shifobaxsh iqlim, mineral suvlar, shifobaxsh balchiq), ikkinchidan fizioterapiya, sogʻlomlashtirish fizkulturasi, parhez va dam olish rejimi bilan kishilar sogʻligʻini mustahkamlaydilar. Oʻzbekiston hududida joylashgan sanatoriylarning oʻndan ziyodi respublikamizda mashhur. Toshkent viloyatidagi «Qibray», «Navbahor», «Oqtosh», «Botanika», «8–mart», Fargʻona viloyatidagi «Chimyon», «Shohimardon», Namangan viloyatidagi «Kosonsoy» va «Chortoq», Buxorodagi «Sitorai Mohi–Xosa» ana shular jumlasidandir.

Dam olish uylari - 2 kunlik (shanba va yakshanba), 12,18 va 24 kunlik muddatlarga moʻljallangan boʻlib, ularda muayyan rejimga rioya qilinadi. Dam oluvchilar koʻproq vaqtlarini ochiq havoda oʻtkazadilar. Ular gimnastika bilan shugʻullanadilar, ekskursiyaga chiqadilar, ommaviy sport oʻyinlarida ishtirok etadilar, kinofilmlar tomosha qiladilar, raqs va oʻyin–kulgu kechalarida qatnashadilar. Shuningdek, dam oluvchilar kutubxonada kitob va gazeta–jurnallar oʻqishlari, shaxmat–shashka, tennis, bilyard oʻynashlari mumkin. «Samarqand», «Fargʻona», «Qibray» dam olish uylarida, Parkentdagi «Kumushkon», «Soʻqoq», Sariosiyodagi «Xonjiza» dam olish uylarida hordiq chiqaruvchilar uchun yaxshi shart–sharoitlar yaratilgan.

Sayohat va ekskursiyalar (turizm) hayotimizga tobora kirib bormoqda. Turizm ommaviy dam olishning oʻziga xos turi. Maʼlumki, Vatanimizning tarixiy va madaniy yodgorliklarini koʻrish, tabiatning betakror va goʻzal goʻshalarida boʻlish, sayru sayohat qilish kishiga olam–olam quvonch baxsh etadi. Turistik sayohatda kishi har doim harakatda boʻladi, shu bois u faol dam olish toifasiga kiradi. Hozirgi kunda turizm va ekskursiya moddiy bazasini har jihatdan mustahkamlashga jiddiy eʼtibor berilmoqda. Kemping va turistik bazalarning bugungi holati har jihatdan zamon talabiga mos boʻlishi dam olishning eng qulay turlarini joriy etishga yoʻl ochmoqda. Xullas, yozgi taʼtilni sayohatda oʻtkazuvchilar uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Keyingi vaqtlarda tabiat qoʻynida dam olish va sayohat qilishga qiziquvchilar soni tobora koʻpayishi natijasida havaskor sayohatchilar klublari

va uyushmalari vujudga kelmoqda. Bu borada Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy nomli madaniyat uyi qoshida tuzilgan tabiat qo‘ynida dam olish havaskorlik klubining faoliyati diqqatga sazovordir. Klubning asosiy maqsadi, shanba va yakshanba kunlari shahar chekkasiga chiqib, dam olishni xohlovchilarga yordam berishdir. Klubning har juma kuni bo‘ladigan yig‘ilishga kelganlar dam olish kunlari qanday va qayerda hordiq chiqarishlari haqida maslahatlashib oladilar.

Insonlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda madaniy-ma‘rifiy muassasalar ayniqsa, madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlari, sport inshootlari, kutubxonalarning imkoniyati katta. O‘quv yurtlari asosan, bolalarga bilim, ta‘lim berish bilan shug‘ullansa, madaniy-ma‘rifiy muassasalar ularning bo‘sh vaqtini maroqli o‘tkazish bilan birga ularni ma‘naviy-axloqiy, ruhiy jihatlardan oziqlantirib tarbiya beradi. Demak, insonlar ma‘naviy barqarorligini yo‘lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb etishikelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishida madaniy-ma‘rifiy muassasa rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir. Chunki insonlarning bo‘sh vaqtida ixtiyoriy tarzda, o‘z qiziqishlari, iste‘dodi va qobiliyatlariga yarasha ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish va uni uyushtirish madaniy-ma‘rifiy xodimlarning murabbiylik mahorati va bilimga bog‘liqligidir. Bu ishlarda murabbiylikdan yana bir qator malaka va ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Madaniy-ma‘rifiy muassasalar siyosiy, tarbiyaviy va madaniy ommaviy ishlar o‘tkaziladigan havfsizliklarni chiqarish va konsertlar, kinofilimlar namoyish etiladigan maskanlar hisoblanadi. Umuman madaniy-ma‘rifiy muassasalar muayyan hududdagi aholini birlashtirishga jamiyat uchun zarur axborotni bevosita yetkazadigan, hatto keng ko‘lamda axloqiy tarbiya olib borish mumkin bo‘lmagan joydir. Mustaqil rivojlanish yo‘lidagi izlanishlarga kirishgan vatanimizda milliy tiklanish va milliy ozodlik taraqqiy etish tarzi madaniy-ma‘rifiy muassasalar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Ijtimoiy tarbiya maskanlarining orasida doim dam olishni tashkil etishning alohida bir usuli sifatida paydo bo‘lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarin-

ing o'zni bo'lakchadir. Chin ma'noda jamiyat a'zolarining har tomonlama yetuklikka erishishini hojlovchi jamiyat jadal taraqqiy etadi.

Bu kabi jarayonlarni olg'a surish, fuqarolar saviyasini nisbatan jamiyat ehtiyojlarining kuchaytirish insonlarning muayyan maqsad asosida yaqinlashtirish, ularni madaniyat va aholi dam olish markazlariga birlashtirish.

Jamiyat a'zolarining qiziqishlari va ehtiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo'sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan shaxsan tarbiyalash madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'z oldiga qo'ygan vazifasidir⁶. Jamiyat o'z a'zolarining tarbiyalash uchun beriladigan barcha qadriyatlarni o'zi belgilaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi pedagog jarayonlar insonlarni, ayniqsa yosh avlodni muayyan qadriyatlar bilan qurollantirib, jamiyat uchun belgilangan maqsadlarda tarbiyalash bilan bog'liq.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning ijtimoiy, madaniy -tarbiyaviy muassasa sifatidagi roli va qadri behad kattadir.

Bugungi milliy respublikamizdagi rahbarlar yosh avlodni yangicha ijtimoiy ong bilan jamiyatning hozirgi talablariga mos o'zi yashayotgan jamiyat muhitining zaruriyatlariga javob beradigan, ya'ni vatanparvarlik ruhida himoyaga yetkazishni talab qiladi. Bu talabni amalga oshirishda viloyatlar markazlaridagi yagona teatr, muzey, kutubxonalar faoliyati kamlik qiladi.

Tumanlar markazlarida saqlanib qolgan madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlarida istirohat bog'larida ommaga ijtimoiy madaniy tadbirlar o'tkazish taqazo qiladilar. Respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy islohatlar bo'lib turgan bir paytda, xalq uchun juda qimmat bo'lgan qadriyatlarni saqlab qolib, ularning o'zbek xalq mustaqilligiga xizmat qilishiga katta e'tibor berildi.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

Davlat siyosatidagi mulk turlarining erkin bo'lishi madaniyat va aholi dam olish markazlarining xususiy turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkoniyat

bermoqda. Bunday muassasalardagi ish mazmuni komil insonlarni tarbiyalashga qaratilmog‘i muhimdir. Bizning davrimizda milliy mafkurani barqaror etish eng asosiy maqsadga aylandi. Madaniy -ma‘rifiy muassasalar mahalliy xalqning milliy dunyoqarashi va ruhiyatiga, mentalitetiga, madaniyatiga mos, mahalliy sharoitiga yaqinlashtirilgan holda ish yuritmoqda. Madaniy muassasaning xizmat faoliyatida bo‘sh vaqtda ijtimoiy madaniy maqsadlarni amalga oshirish orqali foydalanish usullari, omillarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat dargohlardagi kompyuterlar insonlar uchun faqat o‘yin quroli bo‘lib qolmasligi, o‘yinlar insonlarning ijodiy qudratini, qobiliyatlarini amalga oshirishga ta‘sir ko‘rsatishi zarur. Bu o‘yinlarda insonlar uchun fikrlash talab etilmaydi. Madaniyat va aholi dam olish markazlari, kasb-hunar to‘garaklarini ochish turli qiziqarli kurslar tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Havaskorlikni rivojlantirish ham madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkiliy tarbiyaviy muassasa sifatida ahamiyatni oshiradi.

Madaniy - ma‘rifiy xodimning malakaviy faoliyati o‘z maqsadi mohiyati bilan tarbiyaviy ishidir. Uning asosiy vazifalari har tomonlama komil topgan shaxs shakllantirishdan iboratdir. Madaniy - ma‘rifiy xodim mustaqil O‘zbekistonning milliy siyosatining targ‘ibotchisi mehnat va ahloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash, ommaning havaskorlik ijodiyotini rivojlantirish bilan ma‘naviy barkamol inson tarbiyalash ishi bilan shug‘ullanadi¹⁴..

Umum mehnatkashlarning madaniy dam olish, o‘z ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga, iste‘dod va qobiliyatlarini o‘stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Insonlar bilan ishlashga da‘vat etilgan madaniy-ma‘rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to‘garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg‘uloti insonlarda o‘z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg‘ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma‘rifiy xodimlarning o‘zida vatanparvarlik tuyg‘ularini qanchalik mustahkam o‘rin olganligiga, o‘tkaziladigan

¹⁴Jabborov F. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O‘qituvchi. 2003

tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yoʻnaltirish va ularni bir yoʻlga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan toʻgʻri foydalana olishga bogʻliq boʻladi.

Madaniy-maʼrifiy muassasalar xodimlari mehnatkashlari oʻrtasida gʻoyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilgʻorlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va xordiq chiqarishini uyush-tirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni oʻtkazadilar¹⁵.

Madaniy-maʼrifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targʻibot qiladi, yangi madaniyat va istirohat, sanʼat asarlarining paydo boʻlishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik sanʼatini oʻrganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga oʻz xissasini qoʻsha oladigan oʻtmish avlodlarining ilmiy, jangavor, mehnat mahorati anʼanalarining, ilgʻor tajribalarini va ilmlarini meros qilib olgan maʼnaviy pok, ahloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar, in-sonparvarlik gʻoyalariga sodiq qobiliyatini, izlanuvchan, bunyodkor, ijodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu tarbiyaning bosh yoʻli maqsadi yoʻlida komil ishonch bilan harakat qiladigan va qiyinchilikni yangi ja-miyat quruvchilari tarbiyasi yoʻlidir, bu vazifalarni xalq etish har bir kishi maʼnaviy hayotning barcha asosiy tamoyillarini rivojlantirish demakdir.

Insonlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazishda madaniy-maʼrifiy muas-sasalarning ahamiyati va oʻrni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiysiy-siy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniy-maʼrifiy muassasalardagi tarbiya usuli maktablarda, oliy oʻquv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniy-maʼrifiy

¹⁵www.ziyonet.uz Oʻzbekiston talim portali.

muassasalardagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda bu dargohga keluvchilarning ko'ngliligiga tayanadi. Chunki bu tashkilotlarga ijtimoiy ravishda keladilar. Maktablarga, o'quv yurtlariga esa kishilar o'z hayotini ehtiyojlarini qondirish tufayli bilim olish, kasb o'rganish, biron bir mutaxassislikni egallash uchun keladilar. Natijada ularga deyarli bir necha xil yo'ldagi, malakalari va qiziqishlari, maqsadlari bir xil bo'lgan kishilarga qatnashadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarga aholining turli qatlami o'zini ma'naviy talab va istaklarini bayon etish, havaskorlik ijodini rivojlantirish, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, xalqaro axvolda mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatida sodir bo'layotgan voqealarni anglash haqida axborotlar olish, do'stlar, o'rtoqlari bilan suhbatlashish hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun keladilar.

Shuning uchun hm bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, kishilarga tarbiyaviy ta'sir etish ishlari ancha murakkabdir.

Bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarini uyushtirish uchun dastavval aholi turli qatlamlarini ma'naviy talab va istaklarini madaniy saviyasini, kasbi va mutaxassisligini ommaviy axborot vositalari orqali va mustaqil o'qish natijasida olgan yangi bilimlarini darajasini hisobga olish zarurdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiyaviy ishlar uning qatnashuvchilari uchun muntazamlik harakteriga ega emas. Chunki, ularning qatnashuvchilari muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bir tadbirda qatnashgan kishi, ikkinchi tadbirga qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun ular kishilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatidan mahrum.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan kishilarning ijodiy tashabbusiga, ularning faoliyatiga tashkilotchilarning faoliyatiga tayanadilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning har bir tadbiri qatnashuvchilari ham tarbiyalovchisi ham tarbiyachi sifatida qatnashish imkoniyatiga egadir. O'quv yur-

tida esa tarbiyaviy ta'sir etish obektini o'rganuvchilar, talabalar hisoblanib, ular faqatgina tarbiyalanuvchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnatkashlarining madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har kishini o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi markazi hisoblangan madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat maskanlari, qiroatxonalar shular jumlasidan demakdir. Madaniy va ma'rifiy markazlariga respublika, shahar, tuman, viloyat, mahalla guzarlari, madaniyat va aholi dam olish markazlari va madaniyat saroylari kiradi.

Muzeylar tarixiy, o'lkashunoslik, tabiat, san'at va turli ilm hamda kasb-kor, shon-shuhrat muzeylardan iboratdir. Shahar, tuman va aholi zid joylashgan har bir dahada madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Teatr, konsert tashkilotlari, hayvonot va istirohat bog'lari, botanika bog'lari, sirkalar va boshqalar tomosha muassasalari hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy ishlarni oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri aholi turar guzarlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda g'oyaviy, siyosiy, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Aholining turli guruhdagi, maktabdagi tarbiya yoshidagi o'quvchilar, insonlar, o'smirlar, o'g'il va qizlar, erkaklar va ayollar, katta rol o'ynaydi, kampirlar, talabalar, yosh ishchilar, sanoat, transport aloqa vositalari va boshqa sohalarning ishchilari, chaqaloq, ho'jalik xodimlari, ziyolilar, uy bekalari va boshqalarni tushunamiz.

Aholining bu guruhlari har biri o'ziga xos shakl va usullariga tadbirlar uyushtirishni talab etadi.

Turli millatlarning mehnatkashlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni uyushtirishda eng avvalo ularning tilini, o'ziga xos xususiyatlari, ruhiyatini, turmush tarzini, an'analarini, urf-odatlarini, marosimlarini hisobga olish juda ham muhimdir. Madaniy muassasalar xodimlari aholining doimo o'sib kelayotgan ma'naviy talabi, ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama qanday ekanligini qondirishga qaratilgan bo'sh vaqtini oqilona tashkil etishni nazarda tutgan holda g'oyaviy, siyosiy,

madaniy, tarbiyaviy, ommaviy tadbirlarni uyushtiradi. Kishilarning o‘zaro mu- loqatda dunyo qarashi turli tuman hayotiy masalalarni va siyosatdagi kundalik dol- zarb muammolarni erkin muhokama qilish yo‘li bilan madaniy-ma’rifiy muas- sasalar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi¹⁶.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar oldiga qo‘yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil mamlakatimizda bo- zor iqtisodiyoti, xalq xo‘jaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositala- ri, san’atning gurullab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniy-ma’rifiy muassasalarning vazifalari va ular oldiga qo‘yilgan talablar bir-birini to‘ldiradi, boyitadi, tarbiyaviy ishlarni ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Madaniy-ma’rifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalarini singari o‘z xususiyatiga ega, ularning eng asosiy xususiyati madaniy-ma’rifiy ishlarni hayot bilan mustaqil vatanimizning o‘ziga xos milliy siyostai bilan mustahkam bog‘laganligidir.

Madaniy-ma’rifatchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundan iborat- ki, u muntazam izlanishli, ishga hamma vaqt ijodiy yondashadigan kishilarni talab etadi.

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgandan beri sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar natijasida kishilarning o‘z-o‘zini qayta anglashi, ota-bolalar merosiga alohida e’tibor bilan yondashishi, ahloqiy qiyofasi, fe’l-atvori, o‘zgarib ma’naviy va madaniy ehtiyojlarini qondan-qonga o‘tib boryapti. O‘zgargan sharoit shaxsga g‘oyaviy ta’sir etishi, uning o‘tib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yanada yangiroq, samaraliroq vositalar va usullarni qo‘llashni talab etadi. Bu bir tomondan ommani, uning ehtiyojlarini yaxshi bilishni ikkinchi tomondan madaniy-ma’rifiy ishlarning shakli va usullarini tashkillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Madaniy-ma’rifiy ishlar pedagog faoliyatning boshqa turlaridan o‘zining mazmunan murakkabligi, ko‘p qirraligi, shaklan nihoyatda xilma-xilligi shu shakllarning o‘ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan ham farq qiladi. Bundan tashqari madaniy-ma’rifiy muassasalarda ommaviy axborot va sanoat

¹⁶ Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma’naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. - 140

vositalari, texnika vositalari, ommaning havfsizligini rejali, ijodiy tashabbusini tashkil etishning o'ziga xos usullari ham qo'llaniladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim barcha tarbiyachi pedagoglar qatori tarbiyaning hamma yo'nalishlari aqliy, mehnat, ahloqiy, iste'dod, estetik va jismoniy tarbiya masalalari bilan shug'ullanadi. Lekin u bunday ko'p qirrali tarbiyaviy ishlarni maktab va boshqa o'quv yurtlari o'quvchi, murabbiylar faoliyatlarida bo'lganidek, asosan bir xil yoshdagi bir xil tayyorgarlikdan o'quvchilar yoki talablar bilan emas, balki, yosh kasb bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boriladi.

O'quv yurtlarida tarbiya vazifalari asosan fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Madaniy-ma'rifiy xodimlar esa milliy mafkura va milliy g'oya tarbiya vazifalarini mehnatkashlarning bo'sh vaqtida dam olishni oqilona uyushtirish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadida madaniy va ma'rifat maskanlarida tashkil etiladigan havaskorlik uchrashuvlarini ixtiyoriy mashg'ulotlari orqali va xilma-xil ommaviy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodim oldiga omma o'rtasida bilim taraqqatish, insonlarni ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga yordam berish, mehnatsevarlarni moddiy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Bilimlar targ'ibotchisi, ommaning mustaqil o'qib, bilim olishining tashkilotchisi hisoblangan madaniy-ma'rifiy xodim yuksak darajadagi dunyoqarash madaniyatini ya'ni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va falsafiy bilimlari majmuini egalagan bo'lishi kerak.

Madaniy-ma'rifiy xodim uchun eng zarur bo'lgan bilim tarmoqlaridan biri bu pedagog bilimlar bo'lib, u olib boradigan ta'limiy hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati chuqur tushunib olishda, insonlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga uning yo'llari va vositalarini, bo'sh vaqt sharoitida insonlar o'rtasida

o‘zaro muloqat o‘tkazishning eng samarali usullarini o‘zlashtirib olib, ulardan oqilona foydalanish yo‘llarini o‘rganishda yordam beradi¹⁷.

Insonlarda xavas uyg‘ota olish, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini to‘laroq qondira bilish san’atidir.

Bu san’at pedagog odobini egallab olishni ta’lim-tarbiya ishlarini uddalay boshlashni talab qiladi. Bunday bilim va ko‘nikmalar asosida madaniy-ma’rifiy xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste’dodi va qobiliyatlari o‘stiriladi. Madaniy-ma’rifiy xodim malakaviy madaniyatning yana bir muhim ko‘rsatgichi - bu psixologik bilimlaridir. Faqat psixolog qonuniyatlarini puxta o‘zlashtirishi, uni uyushtiradi, qatnashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish asosidagina tarbiyaviy uyushtirish va uning samarali jarayoni to‘g‘ri uyushtirish bo‘lishini ta’minlashi mumkin.

Bugungi kunda madaniyat va sa’nat muassasalari orqali insonlarga ta’lim tarbiya berish va boshqa ta’lim muassasalari hamkorligida targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borish insonlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etishga alohida e’tibor berish, ular har xil oqimlarga kirib qolmaslikka davat etish muxim masaladir. Insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda madaniy-ma’rifiy muassasalarning ahamiyati va o‘rni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiysiyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

«Insonlarni g‘oyaviy taxdid va past saviyali «ommaviy madaniyat»ning zararli ta’sirlaridan himoya qilishning ilmiy-metodik masalalari tug‘risida» davra suhbatlari, savol-javob kechalari, ilmiy anjumanlar o‘tkazish lozim.

Hozirgi vaqtda madaniy-ma’rifiy muassasalarning eng muhim vazifasi mehnatkashlarning madaniy dam olishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning ko‘nglini hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turmushimizda mavjud bo‘lgan turli an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlarning bo‘sh vaqtimizda dam olish soatlarini mazmunli o‘tkazishga madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

¹⁷ Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma’naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. – 145 b.

XULOSA

Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o'z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. Ayniqsa bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, bu ne'matning imkoniyatlarini ko'ngilli dam olish, har taraflama rivojlanish, ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida sarflashning eng optimal usullarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar bilan tanishish va mustaqil izlanishlar olib borish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Har bir shaxsning ish (o'qish) vaqtdan so'ng hordiq chiqarishi, jismoniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishi, o'z qiziqishlari bo'yicha foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi uchun qanchalik miqdorda *bo'sh vaqt imkoniyati* yaratib berilganligi jamiyatning rivojlanganligi va insonparvarligidan, unda huquqiylik tamoyillarining amal qilishidan dalolat beradi.

2. Bo'sh vaqt miqdorining qanchaligi, undan qanday shakl va usullarda foydalanish ijtimoiy va shaxsiy hayotning nechog'lik yuksak yoki tuban darajada ekanini bildirib turadigan mezondir. Jamiyat taraqqiy topgan va uning fuqarolari intellektual va ma'naviy jihatdan yuqori saviyada bo'lsa, bo'sh vaqt fenomenining shaxs va jamiyatni har tomonlama rivojlantirishdagi hissassi ham shu darajada yuksak bo'ladi.

3. Bo'sh vaqtdan qanday foydalanish jamiyat va shaxs hayotining iqtisodiy, intellektual, etnomadaniy darajasiga bog'liqdir.

4. Insoniyat tarixida jamiyat barqarorligi va rivoji komil insonlar omiliga bog'liq bo'lib kelganligi bois, taraqqiyotning butun ongli davri jamiyatda har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishga intilish jarayonlaridan iborat bo'lgan.

5. Buyuk allomalarimizning fikri va keyingi davrda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, kishi komil inson darajasiga ko'tarilishi uchun o'zida *eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan* bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kishini har tomonlama rivojlantirish

uchun bo'sh vaqt fenomenidan kompleks foydalanish, tashkil etiladigan madaniy hordiq tadbirlarini ham shu maqsadga bo'ysundirish kerak.

6. Mamlakatimizda istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab fuqarolarning ma'naviy, intellektual va jismoniy kamoloti uchun tinmay qayg'urib kelinmoqda. Ayniqsa aholining, xususan yoshlarning ham madaniy, ham jismoniy kamolotiga qaratilgan huquqiy bazani mustahkamlashga, ularning bo'sh vaqtlarini hordiq olish bilan birga madaniy o'sishlari uchun yo'naltirilgan xilma-xil madaniy tadbirlar uyushtirilishiga alohida ahamiyat berilayotir.

Bitiruv malakaviy ishning natijalaridan kelib chiqib, quyidagilar **tavsiya** etiladi:

2. Bo'sh vaqt har bir shaxsning rivojlanishi uchun muhim omil ekanini nazarda tutib, ijtimoiy boylik sanalgan bo'sh vaqtdan aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar to'g'ri foydalanishlariga yordam beradigan pedagogik ishlanmalar yaratish.

3. Insonlarning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishni targ'ib qiladigan xilma-xil madaniy hordiq turlarini teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda muntazam yoritib borish, shuningdek gazeta va jurnallarda maqolalar berib borish.

4. Madaniy hordiqning xalqona turlarini, ya'ni alohida inshootlarni talab qilmaydigan va tabiat qo'ynida, toza havoda o'tkaziladigan xalq o'yinlarini yanada keng yoyish, ular bo'yicha turli yoshdagi o'g'il-qizlar, hatto yoshi kattalar o'rtasida ham ko'ngilochar musobaqalar uyushtirib turish.

5. Bo'sh vaqtdan oqilona va unumli foydalanish bo'yicha mahallalarda ko'ngilochar ko'rik-tanlovlar, askiya va qiziqchilik bahslari tashkil etish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish. bo'yicha bellashuvlar o'tkazish uchun ning imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

6. Maktab va litsey-kollejlar bilan madaniyat va aholi dam olish markazlari o'rtasida yoshlarning bo'sh vaqtini optimal tashkil etish bo'yicha hamkorlik o'rnatish orqali har ikki tarafning imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishga erishish.

GLOSSARIY

BADIIY HAVASKORLIK – asosiy ishdan ajralmagan holda jamoa (to‘garak, studiya, xalq teatrlari) yoki yakka holda (xonanda, badiiy so‘z ustasi, sozanda, raqqosa, akrobat va b.) ijod qilish; xalq ijodi shakllaridan.

BAYRAM (turkiycha – katta yig‘in, to‘y) – keng nishonlanadigan tantanali kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko‘ra an’anaviy, diniy, milliy va b. B.lar vujudga keldi.

BO‘SH VAQT – ishlab chiqarish va hayotiy zaruratlar bilan shug‘ullanishlardan xoli bo‘lgan, har bir individning o‘z ixtiyoridagi va u o‘z xohishiga ko‘ra dam olish yoki shaxsini rivojlantirish uchun foydalanadigan ijtimoiy vaqtning bir qismi.

ISH VAQTI – ishlab chiqarish (shu jumladan, yoshlarning maktab, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishi), jamiyatning moddiy boyliklarini yaratish, shaxsiy moddiy ehtiyojini qondirish uchun sarf bo‘ladigan vaqt.

ISHDAN TASHQARI VAQT– muayyan ijtimoiy foydali mehnat uchun sarflanadigan vaqtdan tashqari inson hayoti uchun zarur vaqt hamda dam olish, hordiq chiqarish fursati.

ZARURIY VAQT – inson hayoti va turmushi ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli vaqt.

MADANIY HORDIQ – ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan dam olish.

MADANIY-MA’RIFIY ISH – keng ommani madaniy va ma’rifiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimi.

MADANIYAT – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi.

MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG‘LARI – aholi madaniy hordiq chiqaradigan, turli bezakli daraxt va gulzorlar b-n jihozlangan, ko‘kalamzorlashtirilgan maskan.

MADANIYAT SAROYLARI VA UYLARI – yirik klub muassasalari. Aholining madaniy dam olishini uyushtirish maqsadida quriladi.

MAROSIM – 1) diniy yoki an’anaviy urf-odatlar munosabati b-n o‘tkaziladigan ma’raka, yig‘in: diniy marosimlar, to‘y marosimlari, dafn marosimi va b; 2) tantanalar b-n o‘tkaziladigan rasmiy yig‘in: yubileylar, mukofot berish marosimi, haykalning ochilish marosimlari va b.

MA’NAVIYAT (arab. «ma’naviyat» – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

MA’RIFAT (arabcha «arafa» – «bilmoq» so‘zidan) – ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat.

MILLIY MADANIYAT – ma’lum bir elat, millat, xalq tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan, ularning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini ifoda etgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmui.

“**FAOLIYAT** so‘zi – kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli, inson borlig‘ining muhim xususiyatlaridan biri”¹⁸. Faqat faoliyat zamiridagina inson mohiyati namoyon bo‘lishi, jamiyatning, har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta’minlanishi mumkin. Inson va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda faoliyat shakllari, asosan, quyidagicha turkumlashtiriladi:

FENOMEN (yun. phainomenon – sodir bo‘luvchi) – 1) g‘ayrioddiy, kamdankam bo‘ladigan hodisa, fakt; 2) histuyg‘u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha (bu ma’noda o‘z mohiyati jihatdan intellektual mushohada predmeta sifatida namoyon bo‘luvchi noumenning qaramaqarshisi). "F." atamasini Aristotel "ko‘rinuvchi", "tuyuluvchi" ma`nosida ishlatgan.

¹⁸O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. 9-tom. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B. 187.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” T. “O‘zbekiston” 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2013-yil 25-iyundagi 178- son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF- 4947- son farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 15-fevraldagi PF- 4956-son farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017 yil 31 maydagi PQ-3022-son qarori.
7. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–Toshkent : O‘zbekiston NMIU, 2017. –592 b.
8. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
9. SH. M. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 y.
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.:, 2008.
11. Karimov I.A. Istiqloq va ma’naviyat. -T.:, 1994.

12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
13. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.:, 1998.
14. Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.:, 2011.
15. Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma'naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. – 145
16. Jabborov F. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi.
17. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar, (Madaniy xordik nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha o'kuv ko'llanma). -T.: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003.
18. Begmatov A., Rustamova R. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar -T Ma'naviyat 2008- 12 b.
19. Suyunov A. “Ommaviy madaniyat” ko'lankasi yoxud ma'naviy taxdidlar haqida.-T.: “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” 2010 y
20. Bekmurodov M. Demokratik jamiyatda oila Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent.: 2003. №4 (24). 30-б
21. Abdurahimov T. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari. - T.:, 1997.
22. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning masalasi. - T.: Fan, 1992.
23. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. -T.: 2007.
24. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. -T.: Choipon.- 1995.
25. Маданият ва санъат атамалари изоҳли луғати/тузувчилар: А.Умаров, М.Бекмуродов; Ўзбекистон Давлат Санъат ва маданият институти, Т., Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. - 2015. - 352 б.
26. Норкулов Д. Мехнат, турмуш ва бўш вақт.- «Фан», 1993.
27. Мосалев Б.Г. Социология досуга. - М., 1994.
28. Стрельцов Ю.А. Общение в сфере свободного времени. - М., 1991.
29. Жарков А.Д. Технология культурно-досуговой деятельности. М., 2003.
30. Свободное время и проблемы воспитания. – М., 2003
31. O'zbekiston milliy ensklopediyasi. 9-tom. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

Internet saytlari:

www.google.uz; www.ziynet.uz

ТАЛАБАНИНГ БЎШ ВАҚТИ

Талабалик — олтин давр, бундай шарафли номга сазовор бўлиш улкан бахт демакдир. Талабалик кўчаларида тўрт йил сайр қилиб, унинг азиз меҳмони бўламиз. Устозларимиз доимо тўрт йил кўз очиб юмгунча ўтиб кетади, бўш вақтларингни беҳудага сарф этманглар, деб таъкиллашади. Дарҳақиқат, вақт олий ҳакам, у доимо олдинга интилади. Шу сабабли биз ёшлар ҳар бир сониядан унумли фойдаланишимиз даркор, яъни бўш вақтларимизда ўз



имкониятларимиздан ва қизиқишларимиздан келиб чиқиб вақтимизни бўш ўтказмаган ҳолда бадий асарлар ўқиб, китоб мутолаа қилиб, сўз бойлигимизни оширишимиз лозим. Бундан ташқари, дарслардан бўш вақтларимизда институтимизнинг ахборот-ресурс марказидаги китоблардан истаганча фойдаланишимиз мумкин. Масалан, биз гуруҳимиз билан бўш вақтларимизда театрларга бориб тураимиз, спектакл тугаганидан сўнг, асар ғояси, саҳна декорацияси, актёр ва актрисаларнинг либослари, роллари тўғрисида фикр алмашамиз.

Спорт соғлиқ, узоқ умр, соғлом келажак гаровидир. Спорт билан шуғулланиб турган инсонни фикрлари тиниқ бўлиб, унинг ўзига нисбатан ишончи ошади. Шундай экан, бўш вақтларимизда спорт билан шуғулланиб туришимиз ҳам фойдадан ҳоли бўлмайди.

Муҳтарам Президентимиз И.А.Каримов «Юксак маънавият — енгилмас куч» асарида «Барчамизга аён бўлиши керакки, қаердаки бепарволик, лоқайдлик ҳукм сурса, ўша ерда маънавият энг ожиз ва заиф нуқтага айланади...» — деб бежиз айтмаганлар.

Тенгдошларимизнинг қандай вақт ўтказётганликларига бепарво бўлмасдан, ёшликнинг заррин варақларига гард туширмаган ҳолда, замон билан ҳамнафас бўлиб, халқимизга нафимиз тегадиган мутахассис бўлиб етишайлик.

Муниса ШУКУРОВА

Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш бўлими 1-курс талабаси

SO'ROVNOMA**Hurmatli respondent!**

Mazkur anketa aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tishi hamda madaniy - hordiqiy faoliyatni samaradorligini atroflicha o'rganish maqsadlarida o'tkazilmoqda. Savollarga xolis va to'liq javob berishingizni so'raymiz. O'zingizga ma'qul bo'lgan javob variantlarini anglab olishingiz kerak.

So'rov o'tkazilib, bo'lgandan so'ng olingan anketalar mufassal o'rganiladi. Har bir savolga olingan javoblar miqdoriy hisoblanib bir betda umumlashtiriladi. So'rovlar natijasi bitiruv malakaviy ishi himoyasida muhokama qilinadi.

1. Sizningcha madaniy hordiq nima?

- A. Madaniy-ma'rifiy maskanlariga borish (Aholi dam olish markazi, kutubxona, tabiat qo'ynida aylanish, istirohat bog'lari).
- B. Konsert-tomosha muassasalariga borish (Kinoteatr, muzey, konsert zallari).
- C. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (TV tomosha qilish internet, telefonda suhbat).
- D. Salomatlik (Sport bilan shug'ullanish, sihatgohlarga borish)
- E. Yanani-
malar? _____

2. Madaniy hordiq olish uchun inson bo'sh vaqt topa oladimi yoki aksincha bo'sh vaqti bo'lganda madaniy hordiq oladimi?

- A. madaniy hordiq olish uchun bo'sh vaqt topaman
- B. bo'sh vaqtim bo'lganda madaniy hordiq olaman
- C. Yananimalar? _____

3. Siz mamlakatimizdagi nechta madaniy hordiq maskanlarini bilasiz?

- A. 10 taga yaqin
- B. 5 tagacha
- C. 2 tacha
- D. umuman bilmayman
- E. Nomlarinikeltiring _____

4. Aholi turli tabaqalari vakillari o'zlarining bo'sh vaqtlarini asosan nimalarga bag'ishlaydilar? (3 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

A. Jismoniy charchoqdan xalos bo'lishga;

B. Madaniy xordiq chiqarishga;

C. Seriallar ko'rishga

D. Badiiy ijodiyot bilan shug'ullanishga

E. Internetda shug'ullanishga

F. Oilaviy tadbirlarni o'tkazishga

G. Yana nimalar? _____

5. Siz bo'sh vaqtingizni qayerda va qanday o'tkazasiz? (2 tagacha javobni belgilash mumkin)

A. **Maishiy xizmatlardan foydalanaman** (Bozorga boraman, sport bilan shug'illanaman, Ijtimoiy tarmoqlar, gap-gashtaklarga boraman,)

B. **Yaqinlar davrasida** (Oila davrasida, sevgan insonim bilan bo'sh vaqtimni o'tkazaman, do'stlarim bilan yuzma- yuz yoki telefonda muloqot qilaman)

C. **Madaniyat maskanlariga boraman** (Muzeylarga, madaniyat va istirohat bog'lariga, to'garaklarga)

D. Yana nimalar? _____

6. Siz madaniy xordiq chiqarish uchun bir kunda qancha vaqt sarflaysiz?

A. 3 soatdan ortiq

B. 1-2 soatgacha

C. Madaniy xordiq chiqarish uchun vaqtim yo'q

D. Fikringiz _____

7. Aholi madaniy xordig'ini tashkil etuvchi maskanlar faoliyatini yanada yaxshilash uchun nimalar qilish kerak deb xisoblaysiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

A. Madaniy xordiq olishni yangi bilim va kasblarni egallash bilan bog'liq qilish;

B. Madaniy xordiqni ko'ngilga mos muloqot, uchrashuvlar bilan ko'proq uyg'unlashtirish;

C. Madaniy xordiqni estetik zavqlanish, ma'naviy lazzatlanish bilan bog'liq qilish

- D. Madaniy xordiqni milliy ma'naviy tarbiya olish bilan bog'liq qilish;
- E. Madaniy xordiqni san'at va ijodiyot bilan ko'proq bog'liq qilish;
- F. Zamonaviy, madaniy – texnik jihatdan mukammal jixozlangan, estetik jihatdan o'ziga jalb etuvchi muassasaga ega bo'lish zarurligi;
- G. Qo'shimcha fikrlar? _____

8. Siz, aholini madaniy dam olishini yanada yaxshilash uchun nimalarni taklif etgan bo'lardingiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin)

- A. Madaniyat va istrohat bog'larini ko'paytirish;
- B. Mutolla madaniyatini rivojlantirish
- C. Xotin-qizlarga muloqat kulublari tashkil etish
- D. Qadimiy shaharlarimizga sayohatlar
- E. Mahalla guzarlarida madaniy dam olish shakllarini tarkib toptirish
- F. Katta yoshli aholining madaniy dam oldirishni tashkil qilish;
- G. Teatr va muzeylarga tizimli tashrif etishni yo'lga qo'yish;
- H. Ijodiyot bilan shug'ullanishni har bir insonning zaruriy mashg'ulotiga aylatirish
- I. Yana nimalar ? _____

9. Qaysi muassasa yoki maskanda qanday madaniy hordiq olishni xohlardingiz fikr va mulohazalaringizni bildiring

10. Yoshingiz:- 16-20; - 21-26; - 27-35; - 36-45; - 46-60; - 60

-Yigit; - Qiz; - Erkak; - Ayol; - Nuroniy ota; - Nuroniy ona;

Kasbingiz: Shifokor; O'qituvchi; O'quvchi; Tadbirkor; Uy Bekasi; Ishchi; Nafaqaho'r;

Aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tishi hamda madaniy – hordiqiy faoliyatni samaradorligini atroflicha o'rganish maqsadida aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma aholi o'rtasida 20 kishini qamrab oldi va so'rovnomaning javoblarini jamlab hisobladik va quyidagi xulosada to'xtaldik:

1. Sizningcha madaniy hordiq nima savoliga 45% responden konsert-tomosha muassasalariga borish (Kinoteatr, muzey, konsert zallari) ni tanladi.
2. Madaniy hordiq olish uchun inson bo'sh vaqt topa oladimi yoki aksincha bo'sh vaqti bo'lganda madaniy hordiq oladimi savoliga 60% respondent madaniy hordiq olish uchun bo'sh vaqt topaman deb javob bergan.
3. Siz mamlakatimizdagi nechta madaniy hordiq maskanlarini bilasiz deyilganda 65% respondent 10 taga yaqindeb belgilagan. Hamda nomlariga bog'larni misol qilishgan.
4. Aholi turli tabaqalari vakillari o'zlarining bo'sh vaqtlarini asosan nimalarga bag'ishlaydilar deyiganda 45% respondent Jismoniy charchoqdan xalos bo'lishga deb javob bergan.
5. Siz bo'sh vaqtingizni qayerda va qanday o'tkazasiz deyilganda 50% respondent Yaqinlar davrasida (Oila davrasida, sevgan insonim bilan bo'sh vaqtimni o'tkazaman, do'stlarim bilan yuzma- yuz yoki telefonda muloqot qilaman) javobini bergan.
6. Siz madaniy xordiq chiqarish uchun bir kunda qancha vaqt sarflaysiz degan savolga 45% respondent 1-2 soatgacha degan javob bergan
7. Aholi madaniy xordig'ini tashkil etuvchi maskanlar faoliyatini yanada yaxshilash uchun nimalar qilish kerak deb xisoblaysiz? (2 tagacha javob variantini belgilash mumkin deyilganda 40% respondent zamonaviy, madaniy – texnik jixatdan mukammal jixozlangan, estetik jixatdan o'ziga jalb etuvchi muassasaga ega bo'lish zarurligi javobini berdi.

8. Siz, aholini madaniy dam olishini yanada yaxshilash uchun nimalarni taklif etgan bo'lardingiz deyilgan savolga 60% respondent Mutolla madaniyatini rivojlantirish hamda Qadimiy shaharlarimizga sayohatlar javobini maqulladi.
9. Qaysi muassasa yoki maskanda qanday madaniy hordiq olishni xohlardingiz fikr va mulohazalaringizni bildiring degan savolimizda esa aholi qatlam lari Yoshi, kasbi, davriga qarab masalan,
- 27-35 yoshlardagi o'qituvchi erkak va ayollarimiz yoshlarni bo'sh vaqtlarida kitobga nisbattan mehrini , qiziqishini jalb qilish masalalarini yuqoriga qo'yishgan.
 - 16-26 yosh oralig'idagi o'quvchi yigit va qizlar viloyatlardagi chekka-chekka hududlarda ham kichik bolsa ham aholi dam olish markazlari, bog'lar hamada kinoteatr zallari bo'lishi mqsadga muvofiq bo'lishini takliflarini bildirgan.
 - 27-35 yoshli tibbiyot hodimlari shifohona, sihatgohlarda madaniy hordiq olish uchun sharoitlar yanada takomillashishini takliflarini kiritgan.
 - 21-45 yosh atrofidagi uy bekalari mahallalarda mahallada istiqomat qiluvchi aholi uchun ayniqsa bolalar, uy bekalari, nuroniy ota va onahonlarimiz uchun ham mo'ljallangan aholi dam olish maydoni bo'lishi kerakligini bildirishgan.
 - 21-26 yoshli tadbirkorlar bozorlarda sotuvchi hamda haridorlar uchun charchaganlarida dam olish uchun maxsus dam olish bog'i bo'lsa keluvchilar uchun qulay bo'lishini bildirishdi.
 - 21-60 yosh oralig'idagi ishchi hodimlar tabiat bog'larida yangicha yondoshuvni, yurtimizda turizmni rivojlantirish maqsadida tariximiz boy o'tmishidan o'rganilgan joyda qadimiy qadamjolarni topib, zeb berish, oilaviy dam olish komplekslari yaratilishini fikr va takliflarini berishdi.
 - 36-60 yoshdagi nafaqa ho'rlarimiz tabiiy suv havzalari yon bag'rlarida aholi oilaviy bo'lib bo'sh vaqtlarida samarali dam olib ketishlari uchun sharoitlar yaratilishini tarafdori ekanlar.

So'rovnomadan shu ma'lumotlarini olish mumkinki biz kelajakda insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish uchun quyidagi amaliy choralarni tashkil qilish masalasi oldimizda turgan ishlardan hisoblanadi.

**Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Халқ ижодиёти”
факультети “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва
бошқариш” таълим йўналиши битирувчиси Шукурова
Мунисанинг “Маданий-ҳордиқий фаолиятни ташкил этишда бўш вақт
феноменининг аҳамияти” мавзуидаги битирув малакавий ишига илмий
рахбар ХУЛОСАСИ**

Жамиятнинг инсонпарварлиги унинг ҳар бир аъзосига иш вақтидан сўнг ҳордиқ чиқариши, жисмоний ва маънавий жиҳатдан ривожланиши, ўз қизиқишлари бўйича фойдали машғулотлар билан шуғулланиши учун қанчалик бўш вақт имконияти яратиб бера олгани билан белгиланади. Истиқлол туфайли халқимизнинг ҳаётида ишдан, ўқишдан кейинги бўш вақтини мазмунли ва самарали ўтказишга эҳтиёж кучайди. Мамлакатимизда аҳолини кенг кўламда соғломлаштириш, ижтимоий ҳимоялаш, аҳолининг, айниқса ёшларнинг ўз ижодий ва интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариши ҳамда уларнинг бугунги тезкор аср талабларига тўлиқ жавоб берадиган, ҳар томонлама баркамол шахслар бўлиб вояга етишлари учун зарур маданий ҳордиқ имкониятлари яратилмоқда.

Давлатнинг ўз фуқаролари олдидаги муҳим вазифаларидан бири уларнинг ҳордиқ чиқаришлари, маданий ривожланишлари учун шарт-шароитларни муҳайё қилишдан, бўш вақтини мазмунли ўтказишда маданий тадбирларни омилкорлик билан ташкил этишдан иборатдир. Бу эса мазкур масалани чуқур ўрганишни, бу борада янги усул ва воситалардан фойдаланиш йўллари илмий тадқиқ этишни тақозо қилади. М.Шукурованинг битирув малакавий иши ана шу мавзуга бағишлангани билан долзарблик касб этади.

М.Шукуроваанинг “Маданий-ҳордиқий фаолиятни ташкил этишда бўш вақт феноменининг аҳамияти” мавзуида тайёрлаган битирув малакавий иши икки боб, тўрт параграф, хулоса, фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва иловалардан иборат.

Ишнинг “Маданий-ҳордиқий фаолиятнинг тарихий ва назарий асослари” деб номланган 1-бобида маданий ҳордиқий фаолиятнинг тарихий илдизлари,

унинг ижтимоий ҳаётда тутган ўрни, шахс ва жамият ривожига аҳамияти очиб берилган.

“Бўш вақт ва маданий-ҳордикий фаолиятнинг тақоздорлиги” деб номланган иккинчи бобда *бўш вақт* феномени назарий жиҳатдан ўрганилгани, унинг ҳар бир шахс ҳаётида ва, умуман, жамиятда тутган ўрни тадқиқ этилгани билан бирга у ижтимоий бойлик сифатида шахс ва жамиятнинг ривожланиши учун хизмат қилиши, бу аснода у маданий-ҳордикий фаолият билан доимий тақоздорлик вазиятида бўлиши, бўш вақт ва маданий ҳордиқ фаолияти ҳамيشа бири иккинчисини талаб қилиб, тўлдириб келиши миллий маданиятимиз фактлари, маданий тадбирларнинг хусусиятлари орқали ёритиб берилган. Тадқиқотда бўш вақтдан фойдаланиш типларининг алоҳида ўрганилгани битирув малакавий ишнинг илмий-назарий салмоғини оширган.

Битирув малакавий ишнинг умумий хулосалари кўп жиҳатдан асосли, берилган тавсиялар эса ишнинг илмий натижаларидан келиб чиққан ҳолда шакллантирилган. Битирув малакавий иши мустақил бажарилган, ундаги айрим имло ва услубий ноқисликларни жузъий хатолар сирасига киритиш мумкин.

Умуман М.Шукуроваанинг мазкур битирув малакавий иши олий таълим муассасасларида битирув малакавий ишини тайёрлаш тартиби ҳақидаги Низом талабларига мос келади. Уни тугалланган илмий иш сифатида ҳимояга тавсия этаман.


А.О.Умаров,
социология фанлари доктори, профессор



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Xalq ijodiyoti" fakulteti IV bosqich talabasi Shukurova Munisaning "Madaniy-hordiqiy faoliyatni tashkil etishda bo'sh vaqt fenomenining ahamiyati" mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga ichki

TAQRIZ

Bo'sh vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlari kengaygan hozirgi paytda uning qadriga yetmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o'z navbatida insonning ham o'zgarishini belgilovchi me'yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar bo'sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog'liqlikda o'rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro'yobga chiqishini bo'sh vaqtning hajmi va undan foydalanish ko'nikmalari bilan bog'laydi. Madaniy dam olish insonlarning hayotiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ish unumdorligini oshiradi, yashashga bo'lgan ishtiyoqini ko'taradi.

Munisa Shukurovaning "Madaniy-hordiqiy faoliyatni tashkil etishda bo'sh vaqt fenomenining ahamiyati" mavzuidagi bitiruv malakaviy ishi aynan kishilarning hayotiy faoliyatlari uchun zarur shu ikki ijtimoiy hodisa – bo'sh vaqt va madaniy horliq munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Aslini aytganda ishning dolzarbligi ham shu bilan belgilanadi.

M.Shukurovaning bitiruv malakaviy ishi kirish va xulosadan tashqari ikki bob, to'rt paragrafdan iborat. Ishning birinchi bobida madaniy-hordiqiy faoliyat tushunchasi va uning ijtimoiy hayotdagi o'rne, uning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Ikkinchi bobda esa bo'sh vaqt tushunchasi, uning turlari, xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, samarali madaniy-hordiqiy faoliyatning bo'sh vaqt imkoniyatlariga bog'liqligi dalillar asosida yoritilgan. Ishda aholining madaniy dam olishini tashkil qilishda madaniy tadbirlar, konsertlar, tomoshalarning o'rne va bu tadbirlar orqali yoshlarni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berilgan.

M.Shukurovaning mazkur bitiruv malakaviy ishida mavzuga oid turli adabiyotlardan foydalangan holda ma'lumotlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan, tadqiqotchi ba'zi fikrlarini dalillash uchun sotsiologik so'rov natijalariga tayanib, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishgan. Shu bilan birga ilmiy ish ayrim imloviy va uslubiy xatolardan, takroriy fikrlardan xoli emas, lekin ular BMIning umumiy qimmatiga ta'sir o'tkazmaydi. Mazkur ishni "yaxshi" baholash mumkin, deb hisoblayman.



Munisa Mavrulova,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrası o'qituvchisi

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Халқ ижодиёти” факультети “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” таълим йўналиши битирувчиси Шукурова Мунисанинг “Маданий-ҳордикий фаолиятни ташкил этишда бўш вақт феноменининг аҳамияти” мавзусидаги битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Инсонларнинг бўш вақтини мазмунли, завқли, қизиқарли ҳамда самарали ўтишида маданий ҳордиқ фаолиятининг ўрни каттадир. Маданият ва санъат муассасалари фаолияти маданият ва аҳоли дам олиш марказлари, маданият ва санъат саройлари, музейлар, маданият ва истироҳат боғлари, маҳалла гузарлари, ахборот-ресурс марказлари, кутубхоналар, рассомлик галериялари орқали амалга оширилади. Ривожланган мамлакатларнинг барчасида шахс камолотида ва ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишда маданий-маърифий муассасалар катта рол ўйнайди.

Бугунги кунда, яъни давлатимиз тезкор ривожланаётган бир шароитда ёшларимизни бу жараёнга кенг жалб қилиш, уларнинг бўш вақтини оптимал даражада ташкил қилиш усулларини таҳлил этиш, бугунги глобаллашув даврида ёшларимизнинг онгини тўғри йўналтиришга доир тадбирларни мунтазам ўтказиб боришга ҳаракат қилинмоқда. Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан республикамизда маданий тараққиётнинг ўзига хос стратегик йўли ишлаб чиқилгани аҳолининг маданий ҳордиқ олиши учун ҳар тарафлама шарт-шароитлар яратди.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, Шукурова Мунисанинг “Маданий-ҳордикий фаолиятни ташкил этишда бўш вақт феноменининг аҳамияти” мавзусидаги битирув малакавий иши жуда долзарб ва илмий ўрганишни талаб этадиган муаммолардан бирига бағишланган.

Битирув малакавий иши кириш, икки боб, тўрт фасл, хулоса ва адабиётлар рўйхатидан иборат бўлиб, мантикий жиҳатдан бир-бирини тизимли равишда тўлдириб келувчи бўлиб тузилмага эга.

Ушбу ишда маданий-ҳордиқий фаолиятнинг тарихига, унинг ижтимоий ҳаётдаги ўрнига баҳо берилган, шунингдек, бўш вақт тушунчасининг ижтимоий-фалсафий мазмуни очиб берилган, инсонларнинг бўш вақтини мазмунли ва мароқли ўтказиш учун зарур усул ва воситалар ҳақида мисоллар асосида аниқ фикрлар билдирилган.


Мавзу режа асосида изчил баён қилиниб, илмий хулосалар ясалган ҳамда бу борадаги фаолиятни янада яхшилашга қаратилган бир қатор амалий тавсиялар берилган.

Бундан ташқари талаба Шукурова Муниса тадқиқот мақсадини тўғри белгилаб олган ҳолда унга эришиш учун кўплаб адабиётлар, журналлар ва интернетдан мавзуга оид масалалар билан танишиб чиқган

Ушбу тадқиқот тугалланган бўлиб, битирув малакавий ишининг олдига қўйиладиган талабларга тўлиқ жавоб бериши билан уни юқори баҳога лойиқ иш деб хулоса чиқаришга асос беради.



Н.С.Алиқориев,
иқтисод фанлари доктори, профессор
М.Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети



2018 «19» 06 2018 yil. *Amzosini tasdiqlayman*

